

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



IQTISODIYOT ASOSLARI



Guliston - 2006

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Guliston Davlat Universiteti

A. A. Abduvohidov, O. R. Rayimberdieva

IQTISODIYOT ASOSLARI
(o'quv qo'llanma)

GULISTON-2006

Abduvohidov A. A., Rayimberdieva O. R. "Iqtisodiyot asoslari". Guliston. 2006 y. 88 b.

Ushbu o'quv qo'llanma 3340110-statistika, 3340170-bank ishi, 3340610-moliya, 3380130-huquq va xo'jalik faoliyati yo'nalishlarida o'qitilayotgan "Iqtisodiyot asoslari" fani dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, unda talabalarning fan mavzulari bo'yicha olgan bilimlarini Yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladigan masala va mashqlar to'plami keltirilgan.

Qo'llanma so'ngida iqtisodiy atama va tushunchalarning izohi berilgan. O'quv qo'llanma o'rta maxsus, kasb hunar kollejlari va biznes maktablari o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan oliy o'quv yurtlar bakalavriat bosqichi talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Абдувахидов А.А., Райимбердиева О.Р.«Основы экономики». Гулистан 2006 г. 88 стр.

Данное учебное пособие подготовлено на основе типовой программы «Основы экономики» обучающиеся по направлениям 3340110 – статистика, 3340170 – банковское дело, 3340610 – финансы, 3380130 – право и хозяйственная деятельность. В учебном пособие приведены сборник задач и упражнений, которые помогут укреплять навыки полученных студентами по темам дисциплины.

Учебное пособие предназначено для студентов колледжей и бизнес школ, а также из него могут пользоваться бакалавры высших учебных заведений, обучающиеся по экономическим направлениям.

Abdulahidov A. A., Rayimberdieva O.R. "Basic of economy" Gulistan 2006. 88p.

The certain educational and was prepared on the basis of typical program "Basis of economy" to the student 3340110 – statistics, 3340170 – banking, 3340610 – finance, 3380130 – law and management. Collection of tasks sac exercises, much can strengthen the knowledge of students were given in education aid.

The educational aid is intended to students of colleges and business schools, as well can by students of economy science of high education institutions

Ma'sul muharrir: i.f.n. dos. O. T. Sattorqulov

Taqrizchilar: i.f.d., prof. A. Mamatov
i.f.d., dos. A. Burxanov

© Guliston DU, 2006.

Kirish

“Iqtisodiy va siyosiy sohalaragi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg’onish g’oyasini ro’yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo’lib qoldi.” (I.A.Karimov)

Hozirgi kunda jamiyatimizda keng qamrovli islohotlar jarayoni kechmoqda. Islohotlardan ko’zlangan asosiy maqsad, O’zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq tashqi siyosatga ega bo’lgan huquqiy demokratik jamiyatni qaror toptirishdan iboratdir. Shuni anglab olish lozimki, yuqorida ta’kidlangan fikr bizning strategik maqsadimizni belgilab beradi, strategik maqsadga erishishning asosiy omillaridan biri ta’lim tizimidir. Shu o’rinda buyuk nemis faylasufi Gegel’ning fikrini keltirib o’tish joizdir. *“Yaxshi davlat o’zining ikki jihati bilan ajralib turadi, ularning birinchisi davlatning huquqiyligi bo’lsa, ikkinchisi - yaxshi o’quv yurtlaridir”.*

Jahonda to’plangan tajribalardan kelib chiqib, aytish mumkinki-davlatning qudrati, salohiyatini ishlab chiqarish kuchlari emas, balki ishlab chiqarish usuli belgilab beradi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Jamiyatning eng oliy boyligi bo’lgan xalq abadiy qadriyatlarni, qudratli salohiyatni o’zida jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo’lib xizmat qiladi.”

Mamlakatimiz ta’lim tizimi oldida:

- aholining bilim va savodxonlik darajasini oshirish;
- iqtisodiyot va jamiyatning ayni rivojlanish bosqichi uchun kerak bo’lgan, kasb va malakaga va hamda kuchi sifatining doimiy Yaxshilanishga qodir bo’lgan xodimlar tayyorlash;
- ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish kabi muhim vazifalar turadi.

Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, o’quv yurtlarida ta’lim sifatini tubdan yaxshilash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Ushbu "Iqtisodiyot asoslari" nomli o’quv qo’llanma ham, talaba-larning iqtisodiy fanlar bo’yicha olgan bilimlarini yanada mustah-kamlashga va pirovardida amaliyot mashg’ulotlarining sifatli tashkil etilishiga xizmat qiladi, deb o’ylaymiz.



Iqtisodiyot fani nimani o’rganadi

Iqtisodiyot bo’lishining asosiy sharti, bu-ishlab chiqarishdir.

Ingliz iqtisodchisi Adam Smit klassik iqtisodiy maktabning asoschisi bo’lib hisob-lanadi. Klassik maktab vakillari davlatning iqtisodiyotga aralashuvi noma’qul deb hisob-laydilar va o’z ta’limotlarini ishlab chiqishda ushbu tamoyilga tayanadilar.

dalar

asosida olib borilishi zarur, aks holda esa u mumkin bo'lmay qoladi – alohida shaxs faoliyati ikkinchi bir shaxs faoliyatiga, pirovardida esa jamiyat manfaatlariga zid kelib qoladi. Iqtisodiyot fani cheklangan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarni hamda uzluksiz o'zgaruvchan va doimiy tarzda o'sib boruvchi alohida shaxs va yaxlit holdagi jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda, davlat qonunlari doirasida inson faoliyati strategiyasini ishlab chiqishga va ishlab chiqarishni tadqiq etishga qaratilgandir.

Ishlab chiqarish o'zida ikki bosqichli tizimni ifoda etadi. Birinchi bosqich - alohida shaxs, yakka firmalar, turli xil tovar va xizmatlar bozorlari faoliyati bilan bog'liq. Bu bosqichni mikroiqtisodiyot deb atash qabul qilingan.

Mikroiqtisodiyot alohida iqtisodiy sub'ektlar harakatini o'rganadi. Unga iste'molchilar, ishchilar, er egalari, sarmoyadorlar, fermerlar, ishlab chiqarish korxonalari xullas, iqtisodiyot borasida faoliyat ko'rsatishda muhim o'rin tutuvchi har qanday individ, ya'ni jismoniy shaxs yoki xo'jalik sub'ekti kiradi. Uning diqqat markazida tovarlarning nisbiy narxi, alohida bozorlar, maqsadga erishish uchun aniq resurslarning taqsimlanishi turadi. Mikroiqtisodiyot, masalan: o'aridorlar nima uchun shu tovarlarni o'arid qilishga rozi bo'lganligini, bunga tovar narxi va o'z daromadlarining ta'sirini, koroonada qancha ishchi ishlashi k'arakligini aniq turdagi tovarlarga nar'o qanday qo'yilishini, el'كتروen'argiya uchun narxni nima uchun davlat b'algilaydi, qancha hajmda mahsulot ishlab chiqarish zarurligini, koroonalar faoliyatiga hukumat siyosati va boshqa davlatdagi sharoitlar qanday ta'sir etishini tushuntiradi.

Mikroiqtisodiyotning mazmunini quyidagi masalalarni bilish, o'rganish yordamida yoritish mumkin:

- **bozor iqtisodi mexanizmini o'rganish;**
- **umumiy muvozanat va iqtisodiy fikrlash;**
- **bozor o'o'jaligi sharoitida firmalar, koroonalar, uy o'o'jaligi va ularning tutgan o'rni, turlari, ahamiyati, vazifasi, samaradorligini ta'minlash;**
- **bozor taklifi va talabi;**
- **talab va taklif o'zgaruvchanligi;**
- **raqobatlashuv va koroonalar samaradorligini oshirish;**
- **ishlab chiqarish va uni tashkil etish;**
- **ishlab chiqarish o'arajatlari va foyda;**
- **r'surslardan foydalanish samaradorligi. Ish haqi, narx.**

Ikkinchi bosqich - milliy xo'jalikning yaxlit holda faoliyat yuritishi bilan bog'liq bo'lib, makroiqtisodiyot deb ataladi.

Mikroiqtisodiyot milliy iqtisodiyotning tashkil etuvchilari bo'lmish iqtisodiy birliklar korxonalar va alohida uy xo'jaliklarining bozordagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tahlil etsa, makroiqtisodiyot milliy xo'jalik miqyosida iqtisodiy tahlil yuritadi. Makroiqtisodiyot tahlil etuvchi asosiy iqtisodiy muammolar qatoriga, milliy iqtisodiyotda ishsizlik, inflyasiya, makroiqtisodiy barqarorlik, makroiqtisodiy nobar-qarorlik muammolarini kiritish mumkin.

Birinchidan, makroiqtisodiyot - bu oddiy quyi xo'jalik bo'g'inlarining mexanik yig'indisi emas. U barcha xo'jalik unsurlarini yaxlit tizimga keltiruvchi mustahkam aloqalar umumiyligini ifoda etadi.

O'zaro yaqinlashtiruvchi munosabatlar tizimiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) ishlab chiqarishning yirik tarmoqlari, sohalari o'rtasidagi umumiy mehnat taqsimoti:**
- b) ishlab chiqarishning yirik tuzilmaviy bo'linmalarning koopera-siyalashuvi:**
- v) yagona iqtisodiy kenglikni tashkil etuvchi, milliy bozor.**

Bunday integrasiyalashuvning natijasida milliy xo'jalik deb atash qabul qilingan makrotizim tashkil topadi.

Ikkinchidan, makroiqtisodiyotning moddiy asosi bo'lib, milliy boylik hisoblanadi.

Milliy boylik - tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va insonlar hayotini ta'minlashning zaruriy shartlarini tashkil etuvchi, mamlakat resurslarining umumiyligidir. Zamonaviy statistik tasavvur-larga ko'ra, milliy boylik tarkibiga quyidagilar kiradi: **a) nomoliyaviy ishlab chiqarish aktivlari (asosiy fondlar, moddiy aylanma mablag' zahiralari, qimmatliklar):**

- b) ishlab chiqarilmagan, shu jumladan moddiy aktivlar (er, foydali qazilmalar, suv resurslari);**
- v) nomoddiy aktivlar (ixtirolardan foydalanish uchun lisenziyalar, o'tkaziladigan shartnomalar va hokazo);**
- g) moliyaviy aktivlar (oltin, valyuta, aksiyalar va boshqalar).**



Jon Keynes bozor tebranishlarini bartaraf etish maqsadida iqtisodiyotga davlatning aralashuvi zarurligi haqida o'z qarashlarini bayon etgan va iqtisodiy maktab yaratgan buyuk iqtisodchidir. Uning fikricha davlat iqtisodiy buhronlar davrida izchil makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirishi lozim.

Uchinchidan, makroiqtisodiyot umumiy manfaat va ehtiyoj-larni ruyobga chiqarishga qaratilgan o'zining xususiy xo'jalik asosiga tayanadi. Bu erga:

- a) davlat tomonidan moddiy ne'mat va xizmatlarning sezilarli tarzda o'zlashtirilishi:**
- b) ijtimoiy tovarlar ishlab chiqarish va ularning jamoaviy iste'molini tashkil etish;**
- v) umumiy infratuzilma kiradi.**

Milliy xo'jalik namoyon bo'lish shakllaridan biri, jamiyat manfaatlarini ko'zlab, davlat tomonidan iqtisodiy siyosatning o'tka-zilishi hisoblanadi.

Iqtisodiyotning asosini quyidagi uch asosiy muammo tashkil etadi:

- **Nimani va qanday miqdorlarda ishlab chiqarish zarur?**
- **Qanday, ya'ni qaysi resurslar va texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarish kerak?**
- **Kim uchun ishlab chiqarish kerak (ya'ni, kim mahsulotni iste'mol qiladi va uning foydali xususiyatlarini o'zlashtiradi)?**

Ushbu yuqorida sanab o'tilgan iqtisodiy muammolarni hal etish nuqtai nazaridan iqtisodiy tizimlar farqlanadi. Iqtisodiy tizimlar quyidagi turlarda mavjud bo'ladi:


- **An'anaviy iqtisodiyot;**
- **Rejali iqtisodiyot;**
- **Bozor iqtisodiyoti;**
- **Aralash iqtisodiyot.**



Amerika iqtisodchisi Nobel' mukofoti laureati Milton Fridmen monetarizm iqtisodiy oqimining atqli vakillaridan biri sanaladi. Uning fikricha davlatning asosiy vazifasi monetar barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir.

Iqtisodiyot faqatgina iqtisodiy ne'matlar bilangina ish ko'radi. Insonlar tomonidan qadrlanuvchi va cheklanganlik tavsifiga ega bo'lgan barcha narsalar iqtisodiy ne'matlarni ifoda etadi.

Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil etish nuqtai nazaridan iqtisodiyot,



Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmoqqa aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz erga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamas.
Abdulla Avloniy.

pozitiv va normativ iqtisodiyotga bo'linadi. **Pozitiv iqtisodiyot** iqtisodiy voqelikni aniq faktlarga tayangan holda o'rgansa, **normativ iqtisodiyot** esa iqtisodiy baholashlarga asoslanadi.

Iqtisodiyot nafaqat mikro va makrodarajada, balki mezo (o'rta bo'g'in iqtisodiyoti) va megadarajada (jahon xo'jaligi) ham o'rganili-shini alohida ta'kidlab o'tish lozim

? Testlar:

1. Iqtisodiyot fani nimani o'rgatadi, yoki iqtisodiyot fanining predmetini nima tashkil qiladi:

- a) Milliy iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish ko'rsatkich lari;
- b) Iqtisodiyot statistikasi;
- c) Buxgalteriya va iqtisodiy faoliyatning boshqa hisob turlari;
- d) Ish bo'yicha muloqot usullari va shakllari;
- e) Tadbirkorlik iqtisodiyotini;
- f) Bozor tizimi xo'jalik mexanizmini tashkil etish tamoyillari;
- g) Iqtisodiy hayot rivojlanishining umumiy qonuniyatlari;
- h) Iqtisodiy faoliyatni modellashtirish.
- i) Alohida shaxslar va jamiyat ehtiyojlarining o'zgarishi?

2. Quyidagilardan qaysi biriga aniq miqdoriy tavsif berish mumkin:

- a) Ehtiyojlarning o'sishi;
- b) Ehtiyojlar tuzilmasi o'zgarishi;
- c) Yaratilgan mahsulot hajmi;
- d) Erkin tadbirkorlik.

1. "Mikroiqtisodiyot" tushunchasi o'z ichiga nimalarni oladi, Makroiqtisodiyot tushunchasichi?

- a) Inflyasiya;
- b) Mehnatga layoqatli aholi bandligi;
- c) Ayriboshlash shahobchalaridagi dollar kursi;
- d) Pul muomalasi qonuniyati;
- e) Soliqqa tortish tamoyillari;
- f) Shahar chakana savdo bozorlaridagi narx darajasi;
- g) 2001 yil uchun davlat byudjeti;
- h) Hukumatning ma'lum muddatga mo'ljallangan iqtisodiy dasturi.

4. Moslikni o'rnating:

1. Mikroiqtisodiyot

2. Makroiqtisodiyot

- a) resurslarning cheklanganligi;
- b) ilmiy farazlarga asoslanib ish yurituvchi iqtisodiyot;
- s) alohida firmalar iqtisodiyoti;
- e) iqtisodiy voqelikni bor bo'yicha tahlil etuvchi iqtisodiyot

f) milliy iqtisodiyotni Yaxlit holda o'rganuvchi iqtisodiyot

? **Asosiy tushunchalar va terminlar:**

- a) Kamyoblik;
 - b) Nazariy iqtisodiyot predmeti;
 - c) Normativ iqtisodiyot;
 - d) Pozitiv iqtisodiyot.
1. Iqtisodiyot fanidagi voqea va xodisalarni tahlil etishning baholashlar usuliga asoslangan yo'nalish.
 2. Asosida iqtisodiy xulq atvor tamoyillari shakllanuvchi ma'lumotlarni tahlil qilish.
 3. jamiyatning cheklangan moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan resurslarning cheklanganligi.
 4. jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni o'rganish.

? **Mashqlar:**

1. Iqtisodiyot nazariyasi predmetining birmuncha to'liq va aniq ta'rifini tanlang:

- a) iqtisodiyot ishlab chiqarish va tovarlar ayriboshlashdan iborat bo'lgan faoliyatni o'rganadi.
- b) iqtisodiyot Milliy iqtisodiyot holatiga ta'sir etuvchi, o'zgaruvchan kattaliklar (narx, ishlab chiqarish, bandlik va hokazolar) ni o'rganadi.
- c) O'z a'zolarining ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli tovarlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan cheklangan resurslardan jamiyat qay tarzda foydalanishini o'rganadi.
- d) iqtisodiyot pullar, bank tizimi, kapitalni o'rganadi.

Nazariy iqtisodiyot predmetining yuqorida keltirilgan ta'riflari o'rtasidagi bog'liqliklarni ko'rsating.

2. Quyida keltirilgan ilmiy adabiyotlar nazariy iqtisodiyotning qaysi bo'limini ifoda etadi: Mikro iqtisodiyot va makroiqtisodiyot.

- a) Klas Eklund. Effektivnaya ekonomika. SHvedskaya model'. M-1991 g.
- b) Edvin Dj. Dollan, Kolin D. Kempbell, Razmari Dj. Kempbell. Den'gi, bankovskoe delo i denejno-kreditnaya politika. M-1991 g.
- c) A. Pigu. Ekonomicheskaya teoriya blagosostoyaniya. T. 1,2. M-1985 g
- d) Seno' i senoobrazovanie v ro'nochnoy ekonomike, Uchebnik (pod red. V.M. Gal'perina, V.E.Esipova). S-Peterburg, 1992 g.

? **To'g'ri - noto'g'ri:**

Quyidagi tasdiqlarning to'g'ri (T) yoki noto'g'riligini (N) aniqlang:

1. Oliy matematika sohasida bilimlarga ega bo'lmasdan turib, iqtisodiyot nazariyasini o'rganib bo'lmaydi.

2. Zaif iqtisodiyotga ega mamlakatlarda bozor mavjud bo'lmaydi.
3. O'zbekiston iqtisodiyotiga monopoliyalar xos emas.
4. Iqtisodiyot aniq fan hisoblanmaydi va shuning uchun undan milliy iqtisodiyotni boshqarishda foydalanib bo'lmaydi.
5. Iqtisodiyot aniq fan emas, biroq u bir qator aniq muammolarni tadqiq etishda statistik usullardan foydalanishi mumkin.
6. Iqtisodiy resurslarga boy mamlakat uchun, resurlarning cheklanganlik muammosi xos emas.



Iqtisodiy rivojlanishning umumiy muammolari

Har qanday iqtisodiy tizim mavjud bo'lishining yakuniy maqsadi, jamiyat va shaxs ehtiyojlarini qondirish hisoblanadi.

Ehtiyojlarni qondirish uchun resurslarning xarajat qilinishi bilan iqtisodiy rivojlanishning barcha muammolari bog'liqdir. Bu muammolarning barcha echimlari iqtisodiyotning ikki aksiomasiga asoslanadi.

Birinchi aksioma – jamiyat ehtiyojlari cheksiz deb ta'rif beradi. Ikkinchi aksioma – tovar va xizmatlar ishlab chiqarish zarur bo'lgan jamiyat resurslari cheklangan deb uqtiradi.

Yordamida ehtiyojlar kondiriluvchi vositalar ne'matlar deb ataladi. Ba'zi bir ne'matlar jamiyat ixtiyorida cheksiz mavjud bo'lsa (masalan: havo), ba'zi birlari (masalan: neft', ko'mir) cheklangan miqdorda mavjud bo'ladi va bunday ne'matlar iqtisodiy ne'matlar deb ataladi.

Iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish uchun ma'lum resurslar (omillar) dan foydalaniladi. Iqtisodiy resurslar deyilganda, tovar xizmatlar, ya'ni ne'matlar ishlab chiqarish uchun foydalaniluvchi barcha, tabiat, inson va inson tomonidan yaratilgan resurslar tushuniladi.

Resurslar quyidagi turlarga bo'linadi:

- **Moddiy resurslar – er, kapital;**
- **Inson resurlari – mehnat va tadbirkorlik qobiliyati.**

Ishlab chiqarish omillarini bugungi iqtisodiyot fanining rivojidan kelib chiqqan holda quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

- **er;**
- **mehnat;**
- **kapital;**
- **tadbirkorlik qobiliyati;**
- **axborotlar;**
- **ekologiya.**

Er ishlab chiqarishning tabiiy omilidir. U inson faoliyatining natijasi emas, balki tabiat in'omidir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisi uchun er ishlab chiqarishning asosiy va bosh vositasi hisoblanib, u bir qator xususiyatlarga ega:

- er tabiiy va sun'iy hosildorlikka ega bo'lishi mumkin;
- er - tabiatning in'omi, u erkin asosda takror ishlab chiqarilishi mumkin emas;
- insonning er hosildorligiga ta'siri cheksiz bo'lishi mumkin emas, chunki qaytimning kamayib borish qonuni bu sohada ham amalda bo'ladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p jihatdan ishlab chiqarish jarayonida foydalaniluvchi asbob - uskunalar, mashinalar, inshootlar umumiylikini ifoda etuvchi kapital sifatiga bog'liqdir.

Insonning bilimi, ko'nikmalari, sog'lig'i ham iqtisodiyotda inson kapitali sifatida baholanadi.

Axborotlar ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish va boshqarish borasidagi bilimlar tizimini ifoda etadi. Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida axborotlar muhim o'rin tuta boradi.

Ishlab chiqarishning ekologik omili iqtisodiy o'sishni hara-katlantiruvchi yoki cheklovchi kuch sifatida ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish omillari tizimida tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyati muhim o'rin tutadi. Tadbirkorlik qobiliyatiga ishlab chiqarish omillarini eng samarali qorishtirish omili sifatida qaraladi. Tadbirkor milliy iqtisodiyot tarmoq ishlab chiqarish korxonalarida yoki xizmat ko'rsatish muassasalarining ma'lum bir yo'nalishi bo'yicha o'z iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etuvchi inson - shaxsdir. O'zbekiston Respubli-kasining " Tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida" gi qonuniga muvofiq: "**Tadbirkorlik** - mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida, qabul qilingan qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir." Tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatini mohiyatini chuqurroq ochib berish uchun Prezidentimizning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: "... **hamdo'stlikdagi boshqa davlatlarning fan - texnika taraqqiyoti yutuqlaridan, yangiliklaridan, texnologiyalari, telekommunikasiyalar va kosmik aloqa vositalaridan bahramand bo'lish, zarur xom ashyo va tayyor mahsulotni, shu jumladan xalq is'temol mollarini jahon narxlaridan past narxlarda sotib olish, shuningdek, o'z mahsulotini sotish uchun keng ko'lamdagi bozorning mavjudligidan oqilona foydalanish lozim**" (I. A. Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T. "O'zbekiston" 1998y. 27-b.) Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish mamlakatimizni iqtisodiy jihatdan ravnaq toptirishda asosiy o'rin tutishini tushunib etish lozim.

Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini qaror toptirish jarayonida insonlarning tadbirkorlik qobiliyatlari va ko'nikmalari eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. "**Bir necha o'n yillar davomida respublikada ssenariysi uzoq Markazda to'qilgan qarorlar amalga oshirildi, "kompaniyalar" o'tkazildi. O'zbekistonning chinakam manfaatlari o'ziga xos**

sharoiti va imkoniyatlari pisand qilinmadi. Natijada xalq xo'jaligining nuqsonli, bir tomonlama xom-ashyo tuzilmasi shakllandi. Respublika ayrim xom - ashyo turlarini yoqilg'i asbob - uskunalar va texnologiyalarnigina emas, balki hayotiy muhim oziq - ovqat mahsulotlarini, xalq is'temoli mollarini chetdan keltirishga majbur. (I. A. Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T. "O'zbekiston" 1998y. 36-b.) bo'lgan bo'lsalar, iqtisodiyotni erkinlashtirish asnosida tadbirkorlar uchun tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochildi.

Samaradorlik muammosi – asosiy iqtisodiy muammo hisoblanib, ishlab chiqarishning maqsadi hisoblangan, jamiyatning cheklangan ehtiyojlarini eng yuqori mumkin bo'lgan darajada qondirishga erishish uchun, cheklangan resurslardan eng oqilona foydalanish yullarini tadqiq qiladi.

Iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun, jamiyat o'z ixtiyo-ridagi resurslardan to'laligicha foydalanishga va ishlab chiqarishning eng yuqori hajmiga erishishga intiladi.

Resurslarning cheklanganligi tanlov zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Iqtisodiyotning bosh masalasi bo'lib, ishlab chiqarish omillarini taqsimlashning eng samarali variantini tanlash hisoblanadi. Iqtisodiy tanlovni amalga oshira borib, jamiyat yoki alohida ishlab chiqaruvchi quyidagi uch savolga javob izlashi lozim:

- **qaysi** tovar va xizmatlar va qanday miqdorda ishlab chiqarilishi kerak?
- Bu tovar va xizmatlarni **qanday** ishlab chiqarish lozim?
- Tovlar va xizmatlarni **kim uchun** ishlab chiqarish kerak?

Inson mahsulot ishlab chiqara borib, tabiat ob'ektlariga ta'sir ko'rsatadi va ularni iste'mol uchun yaroqli shaklga keltiradi.

Ishlab chiqarish - tabiatdagi mavjud ne'matlarni bevosita iste'mol etish yoki ishlab chiqarishning keyingi bosqichlarida foydalanish uchun qayta ishlashdir. Ishlab chiqarishning ushbu funksiyasi uning har qanday ijtimoiy shaklida saqlanib qolaveradi.

Aynan, jamiyatda tarkib topgan ishlab chiqarish usullari va shakllari yig'indisi jamiyatning qaysi iqtisodiy tizimga mansubligini ko'rsatib beradi. Iqtisodiy hayotimizda quyidagi iqtisodiy tizimlar farqlanadi:

- **An'anaviy iqtisodiy tizim;**
- **Rejali iqtisodiyot;**
- **Bozor iqtisodiyoti;**
- **Aralash iqtisodiyot.**

Iqtisodiy rivojlanish bugungi kunda bozor iqtisodiy tizimi jamiyat iqtisodiy faoliyatini tashkil etishning eng oqilona yo'li ekanligini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy o'sish – resurslar taklifining o'sishi va texnika taraqqiyoti natijasida katta hajmlarda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatining vujudga kelishi bo'lib, ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ining o'ng tomonga siljishida ifodalanadi.

? Testlar:

1. Quyidagi sanab o'tilgan holatlardan qaysi biri, iqtisodiy nazariya predmeti ta'rifiga kirmaydi:

- a) iqtisodiy ne'matlar;
 - b) cheklanmagan ishlab chiqarish resurslari;
 - c) ehtiyojlarni eng yuqori darajada qondirish;
 - d) cheklanmagan ehtiyojlar;
 - e) resurslarning kamyobkamyobkamyoqligi (cheklanganligi)?
- 2. Nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish muammolari xosdir.**
- a) Faqatgina, markazlashgan rejali iqtisodiyot uchun;
 - b) Faqat, bozor iqtisodiyoti uchun;
 - c) Faqatgina, uchinchi dunyo mamlakatlari uchun;
 - d) Har qanday jamiyat uchun?
- 3. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i:**
- a) Ishlab chiqarish ko'zda tutilgan ikkita tovarning miqdoriy nisbatini;
 - b) ikkita tovarning eng yaxshi kombinasiyasini;
 - c) resurslarning berilgan miqdorida tovarlarning muqobil kombina-siyasini;
 - d) ishlab chiqarish omillari unumdorligining kamayib borish qonunning harakatga kelish vaqtini ko'rsatadi.
- 4. Yangi tennis korti kurilishining muqobil harajatlari:**
- a) Uni qo'riqlash va boshqa xodimlar uchun to'lov.
 - b) Kelgusi yilda tennis korti qurilish narxi;
 - c) Tennis korti daromadidan to'lanishi lozim bo'lgan, soliq stavkasining o'zgarishi;
 - d) Tennis korti kurish uchun, ishlab chiqarishdan voz kechilgan boshqa tovar va xizmatlari narxiga teng.
- 5. Moslikni o'rnatish:**
- | | |
|---------------------------|--|
| 1. iqtisodiy tizim | a) Mikro va makro darajasidagi iqtisodiyot
b) Cheklanmagan ishlab chiqarish omillari. |
| 2. iqtisodiy muammo | s) Rejali iqtisodiyot
g) Resurslarning cheklanganligi |
| 3. iqtisodiyot bo'limlari | d) Aralash iqtisodiyot
e) iqtisodiy tanlov. |
- 6. Agar, iqtisodiy muammolar ham bozor, ham davlat ishtirokida hal etilsa, bu iqtisodiyot ...**
- 7. Barcha iqtisodiy tizimlar duch keluvchi asosiy muammo bu ... muammodir.**

? To'g'ri (T) – noto'g'ri (N):

1. “Nima, qanday, kim uchun ishlab chiqarish kerak” savollari kapitalistik iqtisodiyotda narx mexanizmi yordamida hal etiladi.
2. Resurlarning kamyoblighi inson moddiy ehtiyojlarining cheksizligi bilan izohlanadi.
3. “Nima, qanday, kim uchun ishlab chiqarish kerak?” muammolari rejali iqtisodiyotda avtomatik tarzda hal etiladi.
4. Agar iqtisodiyot samarali bo'lsa, u holda ishlab chiqarish omillari unumdorligining kamayib borish qonuni amal qilmaydi.
5. Kelgusida ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zahiralarni ta'min etish uchun, iqtisodchilar ishsizlik o'sishini rag'batlantirishni taklif qiladilar.

? Asosiy tushuncha va terminlar:

- a) Iqtisodiy muammolar.
 - b) Ishlab chiqarish resurslari.
 - c) Iqtisodiy samaradorlik.
 - d) Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i.
1. Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida foydalaniluvchi ishlab chiqarish omillari.
 2. Kamyob resurslar xarajatlari va ushbu resurslardan foydalanish natijasida yaratilgan tovar va xizmatlar hajmi o'rtasidagi nisbat.
 3. “Nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak?”
 4. Iqtisodiyotda to'la bandlik va ishlab chiqarishning boshqa omillaridan to'liq foydalanish sharoitida ikkita mahsulot (mahsu-lotlar guruhi) o'rtasidagi turli xil kombinasiyalarni ko'rsatuvchi egri chiziq.

? Mashqlar:

1. Issiq iqlimli orolda 5 kishi yashaydi. Ular kokos yong'og'i va toshbaqa tuxumlarini yig'ish bilan shug'ullanadilar. Bir kunda ularning har biri yo 20 dona kokos, yoki 10 dona toshbaqa tuxumi teradi.
 - a) Bu orolning ishlab chiqarish imkoniyatlari qay darajada bo'ladi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i yordamida tushuntiring.
 - b) Tasavvur qilaylik orolga texnika keltirilgan bo'lsin va uning yordamida har bir yashovchi kuniga 28 dona kokos terib olishi mumkin bo'lsin. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ining siljishini grafik tarzda ko'rsating.
2. Asosiy iqtisodiy muammolar turli iqtisodiy tizimlarda qanday hal etiladi?
3. Quyidagi fikrni tahlil eting: “Ehtiyojlarni to'la qondirish mumkin emas-degan fikr noto'g'ri. Men har kuni ertalab nonushtada, o'zim ichishni xohlagan miqdorda kofe iste'mol qilaman”



Xo'jalik yuritishning bozor tizimi

Bozor tizimi xususiy mulkning ustunligi, ijtimoiy mehnat taqsimoti, pul yordamida amalga oshiriluvchi ayriboshlash munosabat-larining keng rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Boshqa ijtimoiy tizim kabi u doimo rivojlanib boradi. An'anaviy jamiyatda vujudga kelgan bozor asta sekinlik bilan xususiy tadbirkorlikka asoslanuvchi Yaxlit kapitalistik tizimga aylanib bormoqda.

Bozor munosabatlari mohiyatini aniqlashtirishda "bozor" tushun-chasi ikkiyoqlama ma'noga ega ekanligini e'tiborga olish lozim. Birinchidan, bozor ayriboshlash va muomala sohasida vujudga keluvchi sotish munosabatlarini ifoda etadi. Ikkinchidan, bozor iqtisodiy faoliyat jarayonlarini qamrab oluvchi, insonlar o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini ifoda etadi. U turli mulkchilik shakllari, tovar - pul munosabatlari va moliya - kredit tizimidan foydalanishga asoslangan iqtisodiyotning amalda bo'lishining murakkab mexanizmi sifatida maydonga chiqadi. Muomala sohasidan tashqari bozor munosabatlari o'z ichiga quyidagilarni ham qamrab oladi:

- **bozor asosida ikki ishtirokchi o'rtasida vujudga keladigan ijara munosabatlari;**
- **ikki mahalliy va xorijiy xo'jalik yurituvchi o'rtasida vujudga keladigan ayriboshlash munosabatlari;**
- **mehnat birjalari orqali ishchi kuchini yollash va undan foydalanish;**
- **kredit munosabatlari;**
- **bozor infratuzilmasining amalda bo'lish jarayoni va shu kabilar.**

Bozorning mohiyati uning funksional vazifalarida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bozorning muhim funksiyalari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- **tovar ishlab chiqarishni tartibga solish funksiyasi.** U tovarga talabning o'sishida ishlab chiqaruvchilarning mahsulot ishlab chiqarish o'lchamlarini oshirishlarida va narxni ko'tarishlarida, natijada esa ishlab chiqarish hajmining qisqarishida ifodalanadi;
- **rag'batlantirish funksiyasi.** Narxlarning pasayishi sharoitida ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishni qisqartira boshladilar va bir paytning o'zida mehnatni tashkil etishni takomillashtirish, yangi texnika va texnologiyani joriy etish orqali, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish imkoniyatlarini izlay boshladilar;
- **ishlab chiqarilgan mahsulotning ijtimoiy ahamiyatini belgilash funksiyasi.** Ushbu funksiya ishlab chiqarish tanqisligi kuzatilmagan hollarda amalda bo'ladi (iste'molchida tanlash imkoni mavjud bo'lsa, bozorda bir necha ishlab chiqaruvchi faoliyat ko'rsatsa va ular o'rtasida musobaqa mavjud bo'lsa);
- **muvofiglashtirish yoki tartibga solish funksiyasi.** Bozor yordamida iqtisodiyotdagi asosiy mikro va makroiqtisodiy nisbatlar o'rnatiladi;

▪ **xo'jalik faoliyatini demokratlashtirish funksiyasi.** Bozor mexanizmi vositasida ijtimoiy ishlab chiqarish yashovchan bo'lmagan iqtisodiyot elementlaridan xalos etiladi va shu asosda tovar ishlab chiqaruvchi-larning tabaqalanishi amalga oshadi.

Bozor iqtisodiyotining amalda bo'lishi umumiylikda bozor tizmini tashkil etuvchi uning ma'lum elementlarining mavjud bo'lishini taqozo etadi. bozor iqtisodiyotining muhim tashkil etuvchilari bo'lib quyi-dagilar hisoblanadi:

- **ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning mavjudligi;**
- **iqtisodiy alohidalashuv yoki xilma xil mulk shakllari, xususan xususiy mulkchilikning rivojlanganligi;**
- **erkin narx tizimining amalda bo'lishi;**
- **iqtisodiy munosabatlarning talab va taklif asosida tashkil etilishi;**
- **raqobat kurashining mavjudligi;**
- **rivojlangan bozor infratuzilmasi.**

Bozor tizimida faoliyat erkinligiga asoslangan, xo'jalik yuritish tamoyillari va xususiy rag'bat omillari amal qiladi. Tadbirkorlik faoliyati va bozor tanlovi rag'bati bo'lib, shaxsiy iqtisodiy manfaat maydonga chiqadi. Tadbirkorlar foydani maksimallashtirish, ishlab chiqarish omillari egallari resurslardan foydalanganlik uchun yuqori daromad olish, iste'molchilar esa zarur tovar va xizmatlarni sotib olish jarayonida o'z foydalarini optimallashtirishdan manfaatdor bo'ladilar.

Bozor tizimining samrali faoliyat yuritishi transaksion xarajatlar ko'lamining pastligi bilan izohlanadi. Transaksion xarajatlar o'z navbatida quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- **axborotlar izlash bilan bog'liq xarajatlar;**
- **bitimlar tuzish bilan bog'liq xarajatlar;**
- **tovar sifatini aniqlash, ma'lum me'yorlarni o'rnatish bilan bog'liq xarajatlar;**
- **huquqiy jihatdan himoyalash bilan bog'liq xarajatlar;**
- **bozorda o'ylamasdan amalga oshirilgan faoliyat tufayli yo'qo-tishlar.**

Tadbirkorlik erkinligi, tanlov mustaqilligi, shaxsiy manfaat bozor ishtirokchilari o'rtasida raqobatchilik munosabatlarini shakllantiradi. Bu munosabatlar iste'molchi, manfaatlarini aks ettiruvchi va bunga tadbirkorlar va ishlab chiqarish omillari egallarining moslashishini talab etuvchi bozor narxlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, narx mexanizmi bozor iqtisodiyoti rivojlanishini nazorat qilib boradi. Bozorga kelib tushayotgan mahsulotlarni taqsimlashda bozor narxlar hal qiluvchi o'rin tutadi. **Birinchidan**, narx – iste'molchi tanlovining muhim me'zoni.

Ikkinchidan – ishlab chiqarish omillariga narxlar jamiyat daromadlari o'lchamlarini shakllantiradi va o'z navbatida aholi turli qatlamlarining xarid qobiliyatini belgilab beradi.

Narx mexanizmining bozor tizimidagi o'rnini ta'kidlab o'tar ekanmiz, narxlar o'ziga xos signal vazifasini o'tashini ham ko'zdan qochirmaslik lozim.

Narx vositasi yordamida tadbirkorlar bozorda harakatlanish uchun mo'ljallanaydilar. Bunday samarali narx tizimi, faqatgina samarali raqobatchilik muhitidagina amalda bo'ladi.

Bozor tizimi uchun xos bo'lgan xo'jalik yuritish tamoyillari va rag'batlarga samaradorligini ijobiy baholagan holda, unga xos bo'lgan salbiy jihatlarni ham inkor etmaslik lozim. Ular-bozor qonunlarining oqibati bo'lgan iqtisodiyotning beqarorligi (inflyasiya, ishsizlikning o'sishi), daromadlarni taqsimlashda tengsizlikning kuchayishini keltirib chiqaradi, ijtimoiy tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq sohalar rivojlanishini cheklab qo'yadi. Shuning uchun, hozirgi bozor tizimi uchun davlatning aralashuvi xosdir. **Davlat bozor iqtisodiyotini tartibga sola borib, erkin raqobatchilik muhiti va erkin narx shakllanish asoslariga putur etkazmasligi lozim.**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlatning ham iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rni sezilarli ahamiyat kasb etib boradi. Jumladan prezidentimiz: **"Bozor tomon harakat qilingan sari xo'jalik faoliyatini boshqarishda davlatning ahamiyati sezilarli darajada o'zgaradi. Davlat, uning xokimiyat tuzilmalari xo'jalik faoliyatiga bevosita aralamshasligi kerak. Davlat iqtisodiy vositalar va rag'batlantirishlar yordamida iqtisodiyotni bilvosita boshqarish umummilliy muammolarini hal etish bilan shug'ullanish... quyi darajada iqtisodiyotning amal qilishi uchun "bozor shart - sharoitlari" va huquqiy negizlarini yaratib, katta ko'lamda iqtisodiyotni tartibga solishda faol ishtirok etishi shart. Raqobatchilik muhitini shakllantirish iqtisodiy islohotlar ikkinchi bosqichining asosiy vazifasidir"** - deb ta'kidlaydi. (I. A. Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T. " O'zbekiston" 1998y. 114-115 b.)

Bozorni erkinlashtirishning tashkil etuvchilari

Tashkil etuvchilar	Mazmuni
Narxlarni erkinlashtirish	Tovar va xizmatlarga narxlarning bozor qonunlari asosida tarkib topishini ta'minlash. Bozor sharoitida narxlarning o'z vazifalarini bajarishini ta'minlash.
Korxonalarga xo'jalik faoliyatida mustaqillik berish	Bozor sharoitida korxonalar mustaqil tarzda xo'jalik qarorlari qabul qiladilar va buning uchun korxona mulkdorlari va bozor oldida javobgar bo'ladilar.
Xususiy sektor rivojlanishiga cheklavlarni olib tashlash.	Bozor iqtisodiyoti xususiy mulk manfaatlariga asoslanishini hisobga olib, xususiy tadbirkorlikning qonunga zid kelmaydigan har qanday turini rivojlantirish.
Moliyaviy operatsiyalarni rivojlantirish	Foiz stavkalarini erkinlashtirish, nodavlat moliyaviy muassasalarining vujudga kelishiga ko'maklashish, ularga moliyaviy operatsiyalar o'tkazishda erkinlik berish.
Tashqi iqtisodiy	Eksport va import operatsiyalarini amalga oshiruvchilarga

faoliyatni erkinlashtirish	mustaqillik berish. Valyuta ope-rasiyalarini erkinlashtirish. Xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlariga qo'shilib borish, mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirib borish, jahon moliya bozorlaridan ichki investisiyalarni moliyalashtirish uchun mablag'lar jalb qilish.
----------------------------	---

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga mamla-katning bir qator o'ziga xos xususiyatlari shu jumladan:

- **mamlakatning geografik joylashuvi;**
- **tabiiy resurslarning mavjudligi;**
- **rivojlanishning tarixiy shart - sharoitlari;**
- **aholining an'analari va qadriyatlari;**
- **ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi;**
- **jamiyatning ijtimoiy yo'naltirilganligi kabilar bevosita ta'sir ko'rsatadi.**

Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida davlatning o'rni ishlab chiqaruvchilarning va iste'molchilarning manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo'lib qoladi.

? Testlar:

1. Ilmiy texnika inqilobi;

- a) Bir biri bilan texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan mashinasozlik sohalaridagi monopoliya;
- b) Kapital tovarlari bozoridagi tanqislik;
- c) Bozor raqobati oqibati hisoblanadi.

2. Bozor tizimining amalda bo'lishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

- a) iqtisodiyotda doiraviy aylanib turuvchi pullar va daromadlar, tovarlarning iqtisodiy oqimi ko'rinishida;
- b) Talab va taklif qonunlari asosida raqobatning vujudga kelishi va bozor narxlarining shakllanish mexanizmlari ko'rinishida;
- c) Davlat qonuniy asoslarda daromad olish asoslarini himoya qiluvchi iqtisodiy tizim sifatida;
- d) Keltirilgan javoblarni qabul qilsa bo'ladi.

3. Moslikni o'rnatish:

1. Narx omillari

- a) qiymat
- b) raqobat vositasi;
- c) rag'batlantirish;
- d) raqobat;

2. Narx funksiyalari

- e) naflik;
- f) talab va taklif.

4. Davlat bozor iqtisodiyotida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- a) Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratish;
- b) Ishlab chiqarish barqarorligi va iqtisodiy o'sishini qo'llab quvvatlash;
- c) Jamiyatning kam ta'minlangan a'zolarini ijtimoiy himoyalash;
- d) Yuqorida keltirilgan javoblarni umumlashgan holda qabul qilish mumkin.

5. Quyidagi belgilardan qaysi biri tarmoqda raqobat mavjudligi haqida guvohlik beradi:

- a) Foyda darajasi ushbu iqtisodiyot uchun me'yoridagidan past;
- b) Ushbu tarmoq korxonalarining ishlab chiqarishni kengaytirishga layoqatsizligi;
- c) Ushbu tarmoqqa boshqa korxonalarining "kirish" imkoniyati yo'qligi;
- d) O'rtacha mamlakat miqyosidagiga qaraganda, tarmoqda mehnatga haq to'lash darajasining pastligi.

6. Bozor iqtisodiyoti ... asoslangan iqtisodiyotdir.

7. Quyida keltirilgan tavsiflardan qaysi biri bozor iqtisodiyoti uchun xos emas:

- a) Raqobat;
- b) Markazlashgan rejalashtirish;
- c) Xususiy mulk;
- d) Tadbirkorlik tanlovi erkinligi.

? Asosiy tushuncha va terminlar:

- a) Mulkchilik huquqi
 - b) Bozor.
 - c) Narx mexanizmi.
 - d) Mehnat taqsimoti.
 - e) iqtisodiy xarajatlar.
 - f) iqtisodiy foyda.
1. Muqobil xarajatlar
 2. Mehnat jarayonini har xil xodimlar tomonidan bajariluvchi alohida operatsiyalarga bo'lish.
 3. Narx signallari asosida resurlarni taqsimlash va ulardan foydalanish.
 4. Muqobil xarajatlar chegirib tashlangandan keyingi firmaning yalpi daromadi.
 5. Sotuvchi va xaridorni birlashtiruvchi mexanizm.
 6. Iqtisodiy resurslarga egalik qilish va (yoki) foydalanish huquqi.

? To'g'ri-noto'g'ri:

1. Raqobatli bozor tizimining amal qilish doirasida sof iqtisodiy muammolar: "Nima, qanday, kim uchun ishlab chiqarish kerak? " hal etiladi, ijtimoiy adolat muammolari davlat zimmasiga yuklatiladi.
2. Mukammal yoki erkin bozor raqobati – bu shunday raqobatki, unda sotishga taklif etilayotgan tovarning narxiga bozor ishtirokchilaridan hech biri ta'sir etolmaydi.
Nomukammal raqobat- talab va taklif muvozanatining buzilishiga olib keluvchi narx shakllanish jarayoniga har qanday monopol aralashuvdir.
3. Bozor narx mexanizmi o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini tartibga solish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini kafolatlaydi.
4. Nomukammal raqobatchi o'zi sotib olayotgan yoki sotayotgan tovarlar narxiga ta'sir ko'rsata olmaydi.

5. Avtomobillarga yoqilg'i quyish shahobchasi - bozorning bir ko'rinishiga misol bo'la oladi.

? **Mashqlar:**

1. Daromadlar va xarajatlar iqtisodiy aylanmasini tahlil qiling va o'z fikrlaringizni bayon qiling.
2. Quyidagi holatga o'z fikringizni bildiring:
"Asalari gullarni changlatish uchun emas, balki asal olish uchun nektar yig'adi. Provvardida esa u gullar manfaatiga xizmat qiladi. Xuddi shunday holat korxona bilan ham yuz beradi."
3. Raqobatli bozor iqtisodiyotining ijobiy tomonlarini ko'rsating. Sizning fikringizcha uning salbiy tomonlari nimalardan iborat? Davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashish usullarini sharhlab bering.
4. Bozor tizimining muhim tavsifi va uning samarali amal qilishining sababi, kapitaldan keng miqyosda foydalanishdir. Bozor iqtisodiyoti samaradorligi o'sishiga imkoniyat yaratuvchi, bozor iqtisodiyotining ikki tavsifini aytib o'ting.




Talab va taklif tahlili asoslari

Bozor iqtisodiyotining holati, uning rivojlanish mexanizmi va darajasi talab va taklif tushunchalari yordamida bayon etiladi.

Talab, ayni vaqtda iste'molchining bozorda taklif etilgan har bir narx bo'yicha mahsulotni sotib olishga tayyorligini ochib beruvchi shkala bilan tavsiflanadi. Talabning o'zgarishiga narxiy va g'ayrinarxiy omillar ta'sir etadi.

Talabning narxga bog'liqligi talab qonuni orqali qayd etiladi va salbiy og'ishga ega egri chiziq orqali ifodalanadi. Talab o'zgarishning narx darajasiga teskari bog'liqligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi: Birinchidan, narx pasayishi xaridorlar sonini ko'paytiradi. Ikkinchidan, narxlarning pasayishi iste'molchilarning xarid qobiliyatini oshiradi. Uchinchidan, bozorlarning to'yinishi qo'shimcha mahsulot birligi foydaliligining kamayishiga olib keladi, shuning uchun iste'molchilar mahsulotlarni faqat past narxda sotib olishga tayyor bo'ladilar.



Talab hajmiga g'ayrinarxiy omillar ham ta'sir etadi. Bu omillar qatoriga iste'molchilarning did va istaklari, bir - birini to'ldiruvchi va o'rinbosar tovarlar narxi, iste'molchi kutishlari kabi omillarni kiritish mumkin.


Ōaridorlarning aniq turdagi tovarlarga munosabati bālgisi bo'yicha talab quyidagi turlarga ajratiladi:

- **Salbiy talab.** Masalan, sabzavotlar tarkibida zaharli moddalarning bo'lishi; kamyob tovarlarning sotilishi;
- **Passiv talab.** Bunda savdosi o'tmay qolgan tovarlarga talab yo'qoladi;
- **To'la qiymatli talab.** To'la qiymatli talabga ega bo'lgan Mahsulotlarga non, yog', sut kabi doimo talab qilinadigan Mahsulotlar kiradi.
- **Mavsumiy talab.**
- **Kamayib boruvchi talab.** Kishilarning daromadi kamaygandagi talabi.
- **Haddan tashqari oshib kātgan talab.** Bunday talab ishlab chiqaruvchilar ma'lum ōildagi tovarlar narōini oshirsalar ham talabni qondira olmaydilar.
- **Bir mǎ'yorda turmaydigan talab.**
- **Yashirin talab.** Bu talab ōilini haqiqiy imkoniyatlar bilan aMalga oshirilgan imkoniyatlar orasidagi farq tashkil etadi.

Taklif ishlab chiqaruvchilarning ma'lum vaqt oraliqlarida ma'lum narxlar asosida mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish xohishlari bilan ifodalanadi.


Taklifning narxga bog'liqligi taklif qonuni bilan ifodalanadi.

Taklif xohishning narx darajasiga to'g'ri bog'liqligi ishlab chiqarish omillari unumdorligining pasayib borish qonuni bilan izohlanadi. Narx darajasining o'zgarishi taklif hajmining o'zgarishga olib keladi. g'ayrinarxiy omillarning harakati taklif hajmining o'ngga (agar u o'ssa) yoki chapga (agar u kamaysa) siljishiga olib keladi. Taklif hajmiga ta'sir etuvchi g'ayri-narxiy omillar jumlasiga: ishlab chiqarish resurslariga narx darajasi, ishlab chiqarish texnologiyasidagi o'zgarishlar, soliqqa tortish va subsidiya kabi omillarni kiritish mumkin.



Taklif chizmasi narx bilan taklif hajmi o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlikni grafik tarzda ko'rsatib beradi

Talab va taklifning o'zaro ta'siri, ularning muvozanatlashuvi narx mexanizmi va raqobat asosida amalga oshiriladi. Bu xil o'zaro ta'sirlashuvlar talab va taklif kattaliklari muvozanatlashuvi muvozanat narxining shakllanishiga olib keladi.



Shunisi ajablanarliki, talab va taklifni tartibga solish mexanizmi tovar bozorlarida ham, resurslar bozorida ham bir xil amalda bo'ladi.

? Testlar:

1. Moslikni o'rnating:

1. Talab qonuni

2. Taklif qonuni

3. Muvozanat narx

a) talab va narx bir-biriga teskari bog'liq.

b) talab va taklif tengligi asosida vujudga keluvchan narx.

c) taklif va narx o'zaro to'g'ri bog'liq

d) iste'molchilarning mahsulot sotib olish imkoniyatlarining o'sishi

3. Moslikni o'rnating:

1. Talab omillari

2. Taklif omillari

a) Narx

b) substitut tovarlar narxi

c) kutilishlar.

d) ishlab chiqarish resurslari narxi

e) ishlab chiqarish texnologiyasi

f) Davlatning soliq siyosati.

4. **Talab – bu eng avvalo ... ehtiyojdir.**
5. **Narx shakllanish mexanizmida talab:**
 - a) Narx va sotib olinayotgan mahsulot miqdori o'rtasidagi teskari bog'liqlikni;
 - b) Ushbu tovarga iste'molchilar talabining doimiy kamayib borishini;
 - c) Tovar narxi va uning sotib olinayotgan miqdori o'rtasidagi to'g'ri chiziqli bog'lanishni tavsiflaydi.
 - d) a va b javoblari to'g'ri.
6. **Taklif qonuniga muvofiq narx darajasi va taklif hajmi o'zaro ... bog'liq.**
7. **Qaysi termin insonlarning biror bir narsa uchun to'lash xohishlari va imkoniyatlarini ifoda etadi:**
 - a) Ehtiyoj;
 - b) Talab;
 - c) Zaruriyat;
 - d) Istak.
8. **Bozor talabi uchun quyidagi omillardan qaysi biri xos emas:**
 - a) Iste'molchilar daromadi;
 - b) O'rinbosar tovarlarning narxi;
 - c) Resurslar narxi;
 - d) Iste'molchilar narxi.
9. **Agar talab tushsa, talab egri chizig'i:**
 - a) Pastga va chapga;
 - b) Soat strelkasi aylanishi bo'yicha;
 - c) Yuqoriga va o'nga;
 - d) Soat strelkasi aylanishiga teskari yo'nalishda siljiydi.

? *Asosiy tushunchalar va terminlar:*

- a) Talab hajmi.
 - b) Taklif hajmi.
 - c) Talab egri chizig'i
 - d) Taklif egri chizig'i.
 - e) Daromad samarasi
 - f) O'rin almashtirish samarasi.
-
1. Iste'molchining narxi yuqori bo'lgan o'xshash tovarlar o'rniga, bir muncha arzonroq tovarlarni sotib olishga intilishi.
 2. Ma'lum muddatda, ma'lum narxlar bo'yicha iste'molchilar sotib olishlari mumkin bo'lgan va istayotgan mahsulot miqdori.
 3. Ushbu tovarga bildirilgan talab kattaligi va tovar narxi o'rtasidagi bog'liqlikning grafik tarzidagi ifodasi.
 4. Tovarga narxning pasayishi sharoitida iste'molchi boshqa tovarlar xarididan voz kechmagan holda, ushbu tovar xaridini ko'paytirishi mumkin.
 5. Tovar narxi va sotuvchilar bozorda taklif etishlari mumkin bo'lgan tovarlar miqdori o'rtasidagi bog'liqlikning grafik tarzidagi ifodasi.

6. Ma'lum muddatda berilgan narxlar asosida ishlab chiqaruvchi sotishni va ishlab chiqarishni istayotgan ma'lum turdagi mahsulot miqdori.

? To'g'ri – noto'g'ri:

1. Talab egri chizig'i narxning pasayish sharoitida talab hajmi oshishini ko'rsatadi.
2. Odatda, X va U tovarlar bir birini to'ldiruvchi tovarlar hisoblanadi, agar U tovar narxining o'sishi X tovarga bo'lgan talabning pasayishiga olib kelsa.
3. Agar, davlat narxlar o'sishining eng yuqori chegarasini belgilab qo'ysa, u holda ushbu tovar taklifi va talabi hajmi doimo teng bo'ladi.
4. Tovar narxining pasayishi sharoitida, uni xarid qilish hajmining o'sishi - talab qonunining namoyon bo'lishidir.
5. Kelgusidagi iste'molchi kutilishlari, yaxlit holda, talab hajmini belgilab beradi.

? Mashqlar va masalalar:

1. Talab qonuni, salbiy og'ishga ega bo'lgan talab egri chizig'i yordamida ifodalanishi mumkin. Nima uchunligini tushuntirib bering?
2. Talab va taklifga ta'sir etuvchi g'ayrinarxiy omillarning ta'sirini grafik tarzda tushuntirib bering.
3. Quyidagi omillar talab va taklif hajmiga qay tarzda ta'sir ko'rsatadi? javoblaringizni asoslang.
 1. Raqobatdosh tovar narxining o'zgarishi.
 2. Yangi texnologiyani joriy etish.
 3. Tovarlar modasining o'zgarishi.
 4. Iste'molchi daromadlarining o'zgarishi.
 5. Xom ashyo narxlarining o'zgarishi.

? Mustaqil ishlash uchun

1. Siz yaqinda oziq – ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi yangi do'kon ochdingiz. Do'koningizda oziq – ovqat mahsulotlarining turli ishlab chiqaruvchilarga mansub turlari mavjud. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi mutaxassislarining fikriga ko'ra, dam olish narxi 15%ga o'sadi. Ushbu holat sizning do'koningizdagi mahsulotlar savdosiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Talabning kesishma egiluvchanlik ko'rsatkichlari

	<i>Kesishma egiluvchanlik</i>
Transport xizmatlari va dam olish	- 0,05
oziq – ovqat va dam olish	0,15
Kiyim – kechak va oziq – ovqat	-0,18

2. Ikra va shampan vinosi bir – birini to'ldiruvchi tovarlar hisoblanadi. Ikraning kattagina qismi olinadigan va so'ngra butun dunyoga tarqatiladigan Volga daryosida yaqinda daryoning ifloslanishi bilan bog'liq og'ir vaziyat vujudga keldi. Ofat natijasida bu erda yashovchi baliqlar ilgariga qaraganda

kamroq ikra qo'ya boshladilar. Bu muammoni grafik tarzda ko'rsatib bering va u ikra va shampan vinosi bozorlarida qanday oqibatlar keltirib chiqarishini tushuntiring.

Ushbu masalalarni hal etish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi;

1. Майкл Р. Байе. Управленческая экономика и стратегия бизнес. пер. с англ. М., «ЮНИТИ» 1999 г. 99 -120 цр.
2. Салимов Б. ва бош=алар Микрои=тисодиёт, дарслик, Т., «Шар=» 2001 й. 22 – 90 с.



Ishlab chiqarish xarajatlari

Ishlab chiqarish va mahsulotni sotishda foydalaniluvchi ishlab chiqarish omillarining pul ko'rinishidagi ifodasi xarajatlar sifatida ifoda etiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil etishda bir necha yondashuvlar mavjud.

Birinchidan, ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan xarajatlar korxona xarajatlari va jamiyat xarajatlari bo'linadi. Jamiyat nuqtai nazaridan tayyor mahsulot qiymatida ifoda etiluvchi barcha jonli va buyumlashgan mehnat sarflari xarajatlar tarkibini takshil etadi. Korxona ishlab chiqarish xarajatlari takror ishlab chiqarish jarayoni natijalarini ifoda etadi va korxonaning ishlab chiqarishda iste'mol qilgan ishlab chiqarish vositalari va ish haqi to'lash bo'yicha pul sarflarini aks ettiradi.

Ikkinchidan, korxona ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiy va buxgalteriya nuqtai nazaridan yondashuv farqlanadi.

Buxgalteriya xarajatlari o'zida, xarid qilishning haqiqiy narxlarida hisoblangan sarf qilingan resurslar qiymatini ifoda etadi.

Iqtisodiy xarajatlar - bu boy berilgan imkoniyatlar xarajatidir (muqobil xarajatlar). Iqtisodiy xarajatlar sarf qilingan resurslarni eng samarali usul orqali ishlatish hisobiga olinishi mumkin bo'lgan daromadlar summasiga teng. Ishlab chiqarish xarajatlarini tasniflashda va ularni u yoki bu xarajatlar turiga mansubligini aniqlashda xarajatlarning bir qator muhim belgilaridan foydalanish mumkin. Bu xil tasniflash quyidagi jadvalda o'z ifodasini topgan.

Ishlab chiqarish resurslarni mahsulotlarga aylantirish jarayoni sifatida qaraladi. Omilli xarajatlar tuzilmasi va mahsulot ishlab chiqarishning **mumkin bo'lgan eng yuqori darajasi o'rtasidagi texnologik bog'liqlik ishlab chiqarish funksiyasi orqali ifodalanadi.**

Ishlab chiqarish tahlili rasman iste'mol tahliliga o'xshashdir. Ishlab chiqarish funksiyasi grafik tarzda izokvantalar kartasi yordamida tasvirlanadi. **Izokvanta** mahsulotning ma'lum miqdorini ishlab chiqarish uchun foydalanish

mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omillari xarajatlarining turli kombinasiyalarini aks ettiradi.

Izokvantaning og'ishi resurlarni texnologik almashtirishning chegaraviy me'yori o'lchaydi, resurslar almashtirilishining chegaraviy me'yori ishlab chiqarish hajmini saqlab qolgan holda, ushbu resurs birligining boshqa resurs birligiga almashtirish miqdorini ifoda etadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tasniflash

Tasniflash belgilari	Xarajatlarning bo'linishi
Iqtisodiy elementlar	Sarflarning iqtisodiy elementlari
Tannarx moddalari	Tannarx, kal'kulyasiya moddalari
Texnologik jarayonga aloqadorligi	Asosiy, qo'shimcha
Tarkib	Bir elementli, kompleks
Mahsulot tannarxiga kiritish	To'g'ri, egri
Ishlab chiqarish jarayonidagi o'rni	Ishlab chiqarish, noishlab chiqarish
Sarf qilishning maqsadga muvofiqligi	Unumli, unumsiz
Rejalashtirish imkoniyati	Rejalashtiriluvchi, rejalashtirilmaydigan
Ishlab chiqarish hajmiga nisabati	Doimiy, o'zgaruvchan
Vujudga kelish davriyligi	Joriy, bir martalik
Tayyor mahsulotga nisbati	Tugallanmagan ishlab chiqarishga sarflar, tayyor mahsulotga sarflar

Qisqa muddatli davrda hech bo'lmaganda ishlab chiqarishning bitta omili doimiylik kasb etadi, uzoq muddatli davrda esa ishlab chiqarishning barcha omillari o'zgarishga uchraydi. Bitta omil (resurs) ning o'zgaruvchanligi sharoitida o'zgaruvchan resursning o'rtacha mahsuloti va chegaraviy mahsuloti tushunchalaridan foydalaniladi. chegaraviy unumdorlikning pasayib borish qonuni shuni ta'kidlaydiki, ma'lum muddatdan so'ng, boshqa resurslarning o'zgarmas sharoitida bir resursdan foydalanish hajmining o'sishi, o'zgaruvchan omilning chegaraviy mahsuloti kamayishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish omillarining o'rin almashtirish qoidasi, ikki resurslar o'sish nisbatining ularning chegaraviy mahsuloti hajmiga teskari bog'liqlikda bo'lishi bilan ifodalanadi.

Uzoq muddatli davrda korxona barcha omillarni ko'paytirish hisobiga ishlab chiqarish hajmini oshirishga intiladi. Ishlab chiqarish o'lchamlarining o'sish samarasi resurslar sarfiga bog'liq holda ijobiy, o'zgarmas yoki salbiy bo'lishi mumkin.

Korxona (firma) oqilona qarorlar qabul qila olish uchun, xarajatlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olishi lozim. Qisqa muddatli davrda xarajatlar doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linadi. Uzoq muddatli davrda barcha xarajatlar o'zgaruvchanlik kasb etadi. Umumiy va o'rtacha xarajatlar farqlanadi. Bir mahsulot birligining o'sishi bilan bog'liq xarajatlar chegaraviy xarajatlar deb ataladi.

Xarajatlar darajasi to'g'risidagi axborotlar xarajatlar chizig'i - izokostani yasashga imkon yaratadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil etishda mehnat unumdorligi kategoriyasi muhim o'rin tutadi. Mehnat unumdorligi sarflangan har bir birlik omil hisobiga yaratilgan va sotilgan mahsulot miqdorini ko'r-satadi.

Mehnat unumdorligining o'sishi quyidagi shartlarning mavjud bo'lishida amalga oshadi:

- mahsulot ishlab chiqarish o'sadi, sarflar kamayadi;
- mahsulot ishlab chiqarish o'sadi, sarflar o'zgarishsiz qoladi;
- mahsulot ishlab chiqarish o'sadi, sarflar esa past sur'atlar bilan o'sadi;
- mahsulot ishlab chiqarish o'zgarishsiz qoladi, sarflar esa qisqaradi;
- mahsulot ishlab chiqarishga nisbatan sarflar tez sur'atlar bilan qisqara boshlaydi.

Mehnat unumdorligi darajasiga kapital qaytimi va material qaytimi kabi xususiy ko'rsatkichlar darajasi ham ta'sir ko'rsatadi.

? *Testlar:*

1. Qanday sharoitlarda ishlab chiqarish omillari unumdorligining pasayib borish qonuni amal qiladi:

- a) Ishlab chiqarishning boshqa omillari domimiy bo'lsa;
- b) Texnologiya darajasi o'zgarmay qolsa;
- c) O'zgaruvchan omilning barcha birliklari bir xil bo'lsa.

2. Moslikni o'rnating:

- | | |
|---------------------------------|--------------------------|
| 1. Ishlab chiqarish xarajatlari | a) ish haqi |
| | b) xom ashyo xarajatlari |
| | c) amortizasiya. |
| 2. Muomala xarajatlari | d) sotish xarajatlari |
| | e) reklama xarajatlari |

3. Ishlab chiqarish quyidagi omillar asosida tarkib topadi:

- a) Mehnat predmeti;
- b) Pul;
- c) Mehnat;
- d) Mehnat vositasi;
- e) Axborot;
- f) Texnologiya;
- g) Ekologik omil.

4. Uzoq muddatli davrda:

- a) Barcha xarajatlar o'zgaruvchan hisoblanadi;
- b) Barcha xarajatlar o'zgarmas hisoblanadi.
- c) Barcha xarajatlar noaniq xarajatlar sifatida namoyon bo'ladi;
- d) Doimiy xarajatlar o'zgaruvchan xarajatlarga qaraganda, tezroq o'sadi;
- e) O'zgaruvchan xarajatlar doimiy xarajatlarga qaraganda tezroq o'sadi.

5. Quyidagi tasdiqlardan qaysi biri to'g'ri?

- a) Buxgalteriya xarajatlari Q iqtisodiy xarajatlar q me'yoriy foyda;
- b) iqtisodiy foyda - buxgalteriya foydasi q aniq xarajatlar;

- c) Buxgalteriya foydasi - noaniq xarajatlar q iqtisodiy foyda;
- d) Iqtisodiy foyda - noaniq xarajatlar q buxgalteriya foydasi;
- e) Aniq va noaniq xarajatlar yig'indisi buxgalteriya xarajatlarini tashkil etadi.

6. Ishlab chiqarish o'lchamlarining o'sishidan ijobiy samara:

- a) Asbob uskunalardan oqilona foydalanish hisobidan;
- b) Ortiqcha ishlab chiqarish maydonchalari va asbob uskunalarini ijaraga berish orqali;
- c) Realizasiya (sotish) xarajatlarini qisqartirish hisobidan;
- d) Ishlab chiqarishni diversifikasiyalash hisobiga olinishi mumkin.

7. Izokvanta quyidagini aks ettiradi:

- a) Umumiy mahsulot hajmining egri chizig'ini;
- b) Ishlab chiqarish funksiyasini;
- c) Resurslarning mavjud miqdorlarida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotning turli hajmlarini;
- d) O'rtacha mahsulot egri chizig'ini;
- e) Chegaraviy mahsulot egri chizig'ini.

? Asosiy tushuncha va terminlar:

- a) Ishlab chiqarish omili chegaraviy mahsuloti.
 - b) Chegaraviy xarajatlar.
 - c) Ishlab chiqarish funksiyasi.
 - d) Mehnat unumdorligi.
 - e) Izokvanta
 - f) Izokosta.
 - g) Kapital qaytimi
 - h) Ishlab chiqarish.
1. Kapitalning o'rtacha unumdorligi, kapital birligi hisobiga mahsulot umumiy hajmi.
 2. Foydalanilishi bir xil xarajatlarni talab etuvchi, resurslarning barcha qiymatlarini ko'rsatuvchi to'g'ri chiziq.
 3. Mahsulot ushbu hajmini ishlab chiqarishda foydalanilishi mumkin bo'lgan o'zgaruvchan resurslarning barcha qiymatlarini ko'rsatuvchi egri chiziq.
 4. Ishlab chiqarish omillarini mahsulotga aylantirish jarayoni.
 5. Ushbu o'zgaruvchan resursning qo'shimcha birligidan foydalanish natijasida, mahsulot umumiy hajmining o'sishi.
 6. Mahsulot birligi ishlab chiqarishning ko'payishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar.
 7. Foydalaniluvchi ishlab chiqarish omillari miqdori va mahsulot ishlab chiqarishning eng yuqori darajasi o'rtasidagi bog'liqlik.
 8. Foydalanilayotgan mehnat birligi hisobiga to'g'ri keluvchi mahsulot hajmi.

? To'g'ri – noto'g'ri:

1. Unchalik katta bo'lmagan firmalar, katta firmalarga qaraganda doimo samarasizdir.

2. Chegaraviy mahsulot o'zining eng yuqori darajasiga etadi, qachonki, chegaraviy xarajatlar eng past darajada bo'lsa.
3. Omildan intensiv foydalanish – bu ushbu ishlab chiqarish omilidan, boshqa omillarga qaraganda keng miqyosda foydalanishdir.
4. Firma ishlab chiqarish o'lchamlarining salbiy samarasi, firmani bankrotlikka olib kelishi mumkin.
5. Iqtisodiy foyda buxgalteriya foydasidan ortiq bo'lishi lozim.
6. Iqtisodiy foyda noaniq xarajatlarni ifoda etadi.
7. Uzoq muddatli davrda xarajatlar o'zgarmas bo'lib qoladi.

? Mashq va masalalar:

1. Ishlab chiqarish omillarini tahlil qiling.
Ishlab chiqarishni tashkil etishda axborotning o'rnini tushuntirib bering.
2. Shaxsiy komp'yuter ishlab chiqaruvchi "XX" firmasining oylik umumiy ishlab chiqarish xarajatlari 5 mln. so'mni tashkil etadi. Ishlab chiqarish hajmi – 20 donaga teng. Firmaning oylik doimiy xarajatlari 20 000 so'mga teng. O'zgaruvchan xarajatlarni, o'rtacha xarajatlarni, doimiy o'rtacha xarajatlarni va o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlarni hisoblash talab etiladi.
3. Atrof muhit ifloslanishi bilan bog'liq holat ishlab chiqarish omili darajasiga ko'tarila oladimi? Fikringizni izohlang.

? Mustaqil ishlash ucun

Yaponiya mehnat vaziri amerikalik ishchilarni yalqovlikda ayblamoqda
O'tgan asrimizning 90 – yillari boshida Yaponiya mehnat vaziri amerikalik ishchilarni yalqovlikda va ish unumi pastligida aybladi. Fortune jurnali ma'lumotlariga qaraganda *Honda* kompaniyasi *Sivic* markasidagi avtomobillarni 10, 9 soat vaqt sarflagan holda ishlab chiqarsa, *Escort* avtomobilini ishlab chiqarish uchun amerikaning *Ford* kompaniyasi 16 soat vaqt sarflaydi.

Yaponiya mehnat vaziri tomonidan qo'ilgan ayblovlar *General motors*, *Ford* va *Chrysler kompaniyalari* aksionerlari o'rtasida tashvish tug'dirdi. 90 – yillarning boshida mazkur kompaniyalar katta zarar ko'rishdi. Aksionerlar buning asosiy sababi, Yaponiya mehnat vaziri ta'kidlaganidek ishchilar mehnat unumdorligining pastligida deb ko'rsatishdi. Bir oz fursatdan so'ng kompaniya menejerlari amerika avtomobilsozligining samarasiz ekanligidan cho'chigan aksionerlarni tinchlantirishga muvaffaq bo'ldilar. Ular bunda mazkur sohada band amerika ishchilarining o'rtacha bir soatlik ish haqi 16 dollarni, yapon ishchilarining o'rtacha bir soatlik ish haqi 18 dollarni tashkil etishi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanishdi.


Sizningcha mazkur raqamlar Yaponiya mehnat vazirining amerikalik ishchilarga nisbatan ayblovlarni inkor etishga imkon beradimi?

Ushbu masalani hal etish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi;

1. Майкл Р. Байе. Управленческая экономика и стратегия бизнес. пер. с англ. М., «ЮНИТИ» 1999 г. 1 91 -250 стр.

2. Салимов Б. ва бош=алар Микрои=тисодиёт, дарслик, Т., «Шар=» 2001 й. 125 – 150 с.

? **Krossvord: Pul**



Eniga: 1. Chek, pul harakatini nazorat qiluvchi muassasa. 5. Hissa, ustama, foyda. 7. Moddiy boylikka egalik qilish. 8. Qadimda soliq. 9. Maydon o'lchov birligi.

Bo'yiga: 1. Daromad va xarajatlar majmuasi. 2. Foiz bilan qaytariladigan qarz. 3. Milliy valyutamiz. 4. Bitimlar kelishuvidagi vositachi, dallol. 5. Xususiy xo'jalik faoliyati yurituvchi shaxs. 6. Pol'sha pul birligi.



Mukammal raqobat sharoitida ishlab chiqarish omillariga narxning shakllanishi

Bozor iqtisodiyoti tizimida ishlab chiqarish omillari bozori alohida o'rin tutadi. Sotuvchilari firmalar, tovar va xizmatlarning iste'molchilari – xaridorlar bo'lgan tayyor tovar va xizmatlarning bozoridan farqli ravishda, ishlab chiqarish omillari bozorida firmalar omillarni sotib oluvchilar sifatida ishtirok etadilar.

Daromad va xarajatlarning iqtisodiy aylanmasi



Ishlab chiqarish omillariga, xususan mehnat, er va kapital kabi birlamchi omillarga narx shakllanishining xususiyatlari quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

- **Birinchidan**, ishlab chiqarish omillari narxi, ushbu omillar yordamida ishlab chiqariluvchi yakuniy iste'mol mahsulotlari narxi bilan aniqlanadi, bu esa korxonalarning ishlab chiqarish omillariga talabi hosilaviy tavsifga ega ekanligini ko'rsatadi;
- **Ikkinchidan**, ishlab chiqarish omillariga narx shakllanishini, ushbu omillarga egalik qiluvchi mulkdorning daromadlari bilan bog'lash lozim.

Ishlab chiqarish omillariga bozor narxi shakllanishi sharoitida korxona faoliyati, xarajatlar va mahsulot ishlab chiqarish hajmi chegaraviy samaradorlikning iqtisodiy hisob - kitoblari asosiga quri-ladi.

Bu erda, asosiy me'zon sifatida resurslarning chegaraviy daromad-liligi ko'riladi. U har bir resursning qo'shimcha sotilishi hisobiga firma daromadlarining o'zgarishi ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi.

Ishlab chiqarish omillariga talab va taklif **“Xarajatlar – ishlab chiqarish” qonuni** asosida shakllanadi. Har bir firma ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirar ekan, o'z oldiga, kam xarajatlar bilan yuqori daromadlar olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ishlab chiqarish omillari bozorida er, uning resurslari, hamda ko'chmas mulk alohida o'rin tutadi. Bunday resurslar ko'pgina xo'jalik yuritish sohalarida o'zining muqobil o'rinbosar resurslariga ega emaslar.

Er, foydali qazilmalar, hamda ko'chmas mulkdan foydalanishdan olingan daromadlarni taqsimlash va bu resurslarga narx shakllanishi yuzasidan

munosabatlar renta munosabatlari deb yuritiladi. Iqtisodiy renta deyilganda, bir muncha tor ma'noda, ijarachi mulkdorga undan foydalanish va daromad olish imkoniyati uchun to'laydigan er narxi tushuniladi.

Qishloq xo'jaligidagi erdan olinadigan foyda renta ko'rinishida namoyon bo'ladi. ya'ni, renta erga bo'lgan mulkning iqtisodiy jihatdan amalga oshirilishidir. Ma'lumki, er egasi undan foyda olish uchun turli usullarni qo'llaydi. Mazkur usullar er keltiradigan daromadga uzviy ravishda bog'liq bo'ladi. Er egasi o'z manfaatiga mos holda erdan foyda olishning eng qulay usulini tanlab oladi. U hatto, o'z tasarrufidagi erini ijaraga berib renta olishi ham mumkin. Erning joylashgan o'rnini, hosildorligi, suv bilan ta'minlanganlik darajasi hamda uni ishlatish sharoitlarining turli tumanligi renta turlarining ham xilma - xil bo'lishiga olib keladi. Ularga mutloq, tabaqalashgan, monopol renta, qurilish uchastkalaridan va undirma sanoatidan olinadigan rentalar kiradi. Renta turlarining xilma - xilligiga qaramasdan ularning barchasi er egasiga daromad keltiradi. Ko'rinib turibdiki, erdan olinuvchi daromad birinchi navbatda uning hosildorligiga bog'liq. Bu esa qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan erlar sifatini doimo nazorat qilib borishni taqozo etadi. Bu borada prezidentimiz o'z asarida: **“Qishloq xo'jaligi ming yillar mobaynida butunlay sug'oriladigan dehqonchilikka asoslangan mintaqada er va suvni asrab-avaylash muhimdir”** - deb uqtiradi.

”(I.A.Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari" T."O'zbekiston"1998y. 531 b.)

Mutloq renta er uchastkalarining sifatidan qat'iy nazar bir xil olinadi. Mazkur renta er resurslarining o'ta cheklanganligi va unga bo'lgan talabning yuqoriligi sharoitida yuzaga keladi. Bunday sharoitda er taklifi deyarli bo'lmaydi. O'ta sifatsiz erlardan ham yaxshi erlarga teng mutloq renta olinadi. Natijada tadbirkorlar o'ta sifatsiz erlardan imkoni boricha unumli foydalanishga, undan renta haqi va me'yoriy foydani undirishga harakat qilishadi.

Tabaqalashgan renta erning sifatiga qarab olinadi va u rentaning mutloq rentadan ortiqcha bo'lgan qismidir.

Tuproqning hosildorligi:tabiiy va iqtisodiy hosildorlikka ajratiladi. Shu bois tabaqalashgan renta ham o'zaro farqlanadi: tabaqalashgan renta I va tabaqalashgan renta II.

Tabaqalashgan renta I - tuproqning tabiiy hosildorligi va joylashgan o'rniga qarab olinadi. Respublikamizda bozor munosabatlarining takomillashib borishi tuproqlarning sifatiga qarab tabaqalanishini va shu asosda undan renta olinishini talab etadi. Yomon erlardan yaxshi erlarga borgan sari unga qilinadigan sarf - xarajatlar qisqarib boradi, ammo tabaqalashgan renta I ning miqdori ortib boradi. Shu bois tadbirkorlar qanday erlarda faoliyat ko'rsatayotganlaridan qat'iy nazar erlarning hosildorligini oshirishga, ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarishga intiladilar. Tabaqalashgan renta I ning miqdoriga tuproq hosildorligi bilan bir qatorda, er maydonlarining joylashgan o'rnini ham ta'sir ko'rsatadi.

Tabaqalashgan renta II - tuproqning iqtisodiy hosildorligi natijasidir. Bu renta erning hosildorligini oshirish maqsadida unga qo'shimcha mablag' sarflash orqali vujudga keladi. Bunday mablag' sarfini samarali ishlatishga qarab xo'jaliklarning alohida xarajatlari tabaqalashadi. Tabaqalashgan renta II faqatgina

erga samarali qo'shimcha ishlov bergan xo'jaliklardagina paydo bo'ladi. Bu foyda er egasiga o'tganidan keyin tabaqalashgan renta II ga aylanadi. Quyidagi jadvallarda tabaqalashgan rentaning vujudga kelishi tahlil etilgan.

Monopol renta - tabiiy iqlim sharoitlari o'ziga xos bo'lgan hududlarda erga ishlov berish natijasida vujudga keladi. Bunday hududlarda etishtirilgan mahsulotlar boshqa hududlarda etishtiril-masligi bilan farqlanib, bu xil mahsulotlar (choy, kofe, sitrus mevalar) doimo yuqori talab bilan iste'molchilar tomonidan sotib olinadi. Bu esa ushbu mahsulotlarga yuqori narx darajasini va monopol foyda olish imkonini belgilab beradi.

Undirma sanoatdan olinadigan renta - er osti boyliklariga, ularning sifati va qazib olish xarajatlariga mos tarzda olinadigan rentadir.

Qurilish uchastkalaridan olinadigan renta erning tabiiy hosildorligi uchun olinadigan rentadan farq qilib uning joylashgan o'rniga bog'liq bo'ladi. Agar er yirik shaharlarga, transport yo'llariga va noyob tabiatli hududlarga qanchalik yaqin bo'lsa, undan olinadigan renta miqdori shunchalik yuqori bo'ladi.

Ma'lumki er taklifi cheklangan, unga bo'lgan talab esa muttasil o'sib boradi. Erga bo'lgan talab va uning taklifining o'zgarib turishi natijasida er narxi ham o'zgarib turadi. Er narxi renta miqdoriga to'g'ri mutanosiblikda, foiz darajasiga nisbatan esa teskari yo'nalishda o'zgaradi. Er narxini quyidagi hisoblashlar asosida aniqlashimiz mumkin bo'ladi:

$$En\ q = \frac{R}{F} \times 100\%$$

En - er narxi;
R - er rentasi
F - foiz stavkasi.

Er narxi darajasiga er maydonining joylashgan o'rne, erning hosildorligi, er maydonining muqobil ishlatish imkoniyatlari mavjudligi, infratuzilma ob'ektlarining etarlicha rivojlanganligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Er taklifining cheklanganligi undan samarali foydalanish yo'llarini izlab topishni talab etadi.

Ishchi kuchi bozori, xususan ishchi kuchi taklifi xususiyatlari shundan iboratki, xodim qancha vaqt ishlashni va qancha vaqtni dam olish va muqobil mashg'ulotlarga ajratishni o'zi hal qiladi. Mehnat bozorida "o'rin almashtirish samarasi va daromad samarasi" amal qiladi.

Mehnat resurslarini sifat jihatdan takomillashtirish iqtisodiyotning o'sish sur'atlari bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham mamlakatda mehnat bozorini, mehnatni boshqarish institutlarini va uning iqtisodiy - huquqiy mexanizmlarini yaratish eng asosiy vazifalardan biridir. Mehnat bozori va uning normal faoliyat ko'rsatishi quyidagi omillarga bog'liq:

- **aholi soni, yoshi va jinsiy tarkibi;**
- **ish bilan bandlikdagi hududiy va tarmoq o'zgarishlari;**

- **qo'shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mexanizmi;**
- **ishlab chiqarish hajmi, uning o'sish sur'ati, ishlab chiqarish tarkibi;**
- **ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuvi;**
- **mehnat resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari va boshqalar.**

Amaliyotda aholining "to'la ish bilan bandligi" degan tu-shuncha bor. Lekin bunday natijaga o'z - o'zidan erishib bo'lmaydi, chunki 100% aholining ishlamoqchi bo'lgan qismini deyarli ish bilan band qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'lum miqdorda aholining ishsiz bo'lishi iqtisodiy jihatdan normal holdir.

Ishsizlar - bu ishchi kuchining bir qismi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan lekin ishlashni xohlovchi va ish qidirayotganlardan iborat.

Ishsizlikning quyidagi turlari mavjud:

Friksion ishsizlik - bularga ish qidirayotgan yoki yaqin vaqtlar ichida ish bilan ta'minlanishni kutayotgan ishchi kuchlari kiradi. Ishsizlikning bu turi asosan mavsumiy ishlar, ishlab chiqarishlardagi eski modelning yangisi bilan almashtirilishi, ish yoki turar joylarini o'zgartirishlar, yohud o'quv yurtlarini tugatish va shuningdek boshqa sabablardan kelib chiqadi. U doimo mavjud bo'lib, ma'lum bir darajada kerakli deb hisoblanadi.

Tuzilmaviy ishsizlik - bularga asosan ishsizlarning malakalarini o'zgartirishi va oshirishi, ma'lumot olishi, kasb egallashi lozim bo'lgan ishsizlar guruhlari kiradi. Friksion ishsizlik bilan tuzilmaviy ishsizlikning asosiy farqi shundaki, birinchisida ma'lum malaka va tajriba mavjud bo'ladi va undan foydalanib ish joylarini tezroq topib olishadi, ikkinchisida esa ishchi kuchi darhol va tezroq ish joylarini topa olmaydilar. Tuzilmaviy ishsizlik iste'mol bozori ma'lum mahsulotlar bilan to'ldirilganda va u mahsulotga ehtiyoj qolmaganda paydo bo'ladi.

Davriy ishsizlik - bu asosan ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishidan paydo bo'ladi. Davriy pasayish tovar va xizmatlar yalpi taklifining kamayishi va oqibatda aholini ish bilan bandligining qisqarishi va ishsizlikning o'sishini bildiradi.

To'la ish bilan bandlik - barcha ishchi kuchining 100% ish bilan ta'minlanganligini bildirmaydi. Aksincha, ixtiyoriy va tuzilmaviy ishsizlik ilojisiz hol bo'lganligini hisobga olsak, biz mutloq to'la ish bilan bandlikka erishib bo'lmasligini tushunamiz.

Mehnat bozorining tarkibini quyidagilar tashkil etadi:

- **mehnatga talab;**
- **mehnat taklifi;**
- **ishchi kuchi narxi yoki ish haqi;**
- **ishchi kuchi qiymati;**
- **raqobat.**

Shunday qilib, mehnat bozori tovar bozorining o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, uning xususiyati shundan iboratki, unda ishchi kuchi yoki insonning mehnat qobiliyati sotiladi va sotib olinadi.

Kapital bozorida ham, talab va taklif qonuni amal qiladi va kapital narxini belgilab beradi.

Kapital bozorida foiz, yillik foiz stavkasi, diskontlash, investision loyihalar, bank depozitlari kabi kategoriyalar amal qiladi. Kapital bozorining muhim ko'rinishlaridan biri qimmatbaho qog'ozlar bozori bo'lib hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozori - qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaruvchi, sotuvchi va sotib oluvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Qimmatli qog'ozlar bozorining ishtirokchilari bo'lib, emitentlar, investorlar va investisiya institutlari hisoblanadi. Qimmatli qog'ozni muomalaga chiqaruvchilar emitentlar bo'lib hisoblansa, qimmatli qog'ozni sotib oluvchilar investorlar deb ataladi. Qimmatli qog'ozlar bozorida savdo - vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi muassasalar investisiya institutlari deb yuritiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida aksiya, obligasiya kabi qimmatli qog'ozlar muomalada bo'ladi.

Aksiya - o'z egasiga hissadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividend sifatida olish va jamiyat mulkining bir qismiga egalik qilish va jamiyat boshqaruvida qatnashish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir.

Obligasiya - qarz majburiyati bo'lib, o'z egasiga ko'rsatilgan summani va foizlarni ma'lum muddatda olish huquqini beradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori o'z navbatida birlamchi va ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozoriga bo'linadi.

Testlar:

1. Ishlab chiqarish omillari bozori – bu:

- a) Iqtisodiy resurslardan ishlab chiqarishda foydalanish uchun davlat tomonidan taqsimlash sohasi;
- b) Xo'jalik faoliyati resurslari guruhlarining tovar aylanmasi sohalari;
- c) Ishlab chiqarish natijasi – yakuniy mahsulotlar va xizmatlarni sotish bozorlari;
- d) Investision tovarlar bozori;

2. O'zbekiston iqtisodiyotida bozor infrastrukturasini:

- a) Allaqachon shakllanib bo'lgan;
- b) Shakllanishning dastlabki bosqichida;
- c) Doimo davlat sektori sohalari tarkibida mavjud bo'lib kelgan;
- d) Ayrim sohalarda shakllanib bo'lgan.

3. Raqobat – bu ishtirokchilarning o'z foydalarini maksimallashtirish uchun o'zaro ...

4. Raqobat –

- a) Rejali iqtisodiyot;
- b) Davlat mulki;
- c) Xususiy mulk;
- d) Ijarachilik;
- e) Chegaraviy mahsulot.

5. Moslikni o'rnating:

1. Mehnat bozori

2. Kapital bozori

- a) ish kuchi malakasi
- b) foiz
- c) bank depozitlari
- d) ishsizlik
- e) investisiyalar
- f) daromad samarasi
- g) diskontlash

6. Quyidagi bozorlardan qaysi biri ko'proq mukammal raqobat sharoitlariga mos tushadi:

- a) Po'lat;
- b) Sartarosh xizmatlari;
- c) Avtomobillar;
- d) Korxonalarning aksiyalari va obligasiyalari;
- e) Benzin.

7. Ishlab chiqarish funksiyasi – bu:

- a) Ishlab chiqarish omillari va ularning yordamida tayyorlangan ishlab chiqarish o'lchamlari o'rtasidagi texnologik bog'liqlik;
- b) Ishlab chiqarish omillariga narx shakllanish funksiyasi;
- c) Ishlab chiqarishni davlat tomonidan tartibga solish funksiyasi;
- d) Ishlab chiqarish omillariga talab va taklif.

8. Ishlab chiqarish omillaridan foydalanish sifatini oshirish hisobiga ishlab chiqarishning tashkil etilishi – bu ... ishlab chiqarishdir.

? Asosiy tushuncha va terminlar:

- a) Zararsizlik nuqtasi.
 - b) O'rtacha daromad.
 - c) Chegaraviy daromad.
 - d) Mukammal raqobat.
 - e) Xarajatlari o'sib boruvchi tarmoq.
 - f) Xarajatlari kamayib boradigan tarmoq.
1. Qo'shimcha tovar birligining sotilishi natijasida umumiy daromad-ning o'zgarishi.
 2. Umumiy xarajatlar umumiy daromadga yoki o'rtacha xarajatlar mahsulot narxiga teng bo'lgan ishlab chiqarish hajmi.
 3. Sotilgan mahsulot hajmiga bo'lingan umumiy daromad.
 4. Ishlab chiqarishning kengayishi iste'mol qilinayotgan resurslarga narxning pasayishini keltirib chiqaradigan tarmoq.
 5. Ko'plab firmalar aynan bir xil tovarlarni sotuvchi va hech bir firma etarlicha bozorda katta ulushga ega bo'lmagan, tovarlarning bozor narxiga ta'sir ko'rsatishi imkoni yo'q, bozor.
 6. Ishlab chiqarishning kengayishi iste'mol qilinayotgan resurslar narxi o'sishini yuzaga keltiruvchi, tarmoq.

? To'g'ri – noto'g'ri:

1. Agar, tovarning bozor narxi doimiy bo'lsa, u holda mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi korxona foydasi o'lchamlariga ta'sir etmaydi.
2. Hosilaviy talab – bu, korxona mahsulotiga talab natijasida yuzaga keluvchi talab.
3. Ishlab chiqarish omillari raqobatli bozorlarida resurslarning sotuvchilari va xaridorlari ishlab chiqarish omillari narxiga ta'sir etmaydilar.
4. Raqobatli tarmoq mahsulotiga talab, narx bo'yicha mutloq egiluvchandir.
5. Investisiyalar – mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi mexa-nizmdir.

? Mashq va masalalar:

1. Quyidagi qisqa muddatli davrda A korxonaning ishlab chiqarish funksiyasi modeli keltirilgan (mehnatdan tashqari, barcha omillar o'zgarmas).

Mehnat birligi miqdori	1	2	3	4	5	6	7	8
Mahsulot ishlab chiqarish	10	28	44	54	64	68	68	66

Hisob bo'yicha nechanchi xodim yollanishidan so'ng, ishlab chiqarishning o'zgaruvchan omili qaytimi kamayib boradi.

To'rtta xodim uchun o'rtacha mahsulot qiymatini hisoblang;

2. Korxona 5 birlik A resursdan foydalanib, 100 birlik tovar ishlab chiqaradi. Resurs birligi narxi 50 pul birligiga teng. Korxona 6 birlik resursni yollaydi, bu holatda ishlab chiqarish hajmi 120 birlikkacha o'sadi. A resursning chegaraviy daromadliligi nimaga teng?
3. Agar, 5 foizli stavkada 20 ming pul birligi bugun investisiyalansa, 5 yildan so'ng, bu investisiyalar qancha daromad keltiradi?
4. Qanday iqtisodiy sharoitlarda mehnat talabi o'sadi? 2006- yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston iqtisodiyotida shunday sharoitlar mavjudmi?
5. Ishlab chiqarish omillari bozori nima? " Qanday, kim va nima uchun ishlab chiqarish kerak?" savollarning hal etilishiga ishlab chiqarish omillari bozori qay darajada ta'sir etadi? Javoblaringizni asoslang.
6. Ishlab chiqarish omillariga bozor narxi shakllanish asoslarini nima tashkil etadi?
7. Keyingi yillarda O'zbekistonda bank foiz stavkalari pasayishi kuzatilmoqda. Bu O'zbekistonda investision loyihalarni amalga oshirishda qay tarzda aks etmoqda?

? Mustaqil ishlash uchun

Yapon videomagnitofon ishlab chiqaruvchilari o'z foydalaridan mahrum bo'lishmoqda

1992 yilda Yaponiyada videomagnitofon ishlab chiqaruvchi soha o'zining 20 yillik yubileyini nishonladi. Ammo, mazkur yubiley hech qanday ko'tarinkiliksiz o'tdi. 17 yil mobaynida mazkur tovar ishlab chiqaruvchilari

so'tish hajmini eng yuqori darajaga olib chiqishdi, biroq, keyingi uch yil ichida bir tomonidan bozorning to'yinishi, ikkinchi tomondan xorijiy raqobatchilar sonining o'sishi natijasida videomagnitofonga bo'lgan talab tez sur'atlar bilan pasayib ketdi. Yaponiyaning o'zidayoq oilalarning qariyb 80 %i kamida bittadan videomagnitofonga ega, bu esa mamlakatda mazkur mahsulot uchun iste'molchilar bazasining qisqarishiga olib keldi. Ayni paytgacha, AQSH yapon video-magnitofonlari uchun eng yirik bozor bo'lib kelgan bo'lsa, endilikda amerikalik iste'molchilar ko'proq Janubiy Koreya va Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ishlab chiqarilgan nisbatan bir muncha arzon tovar modellariga murojaat qilishmoqda.

Sizningcha nima uchun Matsushita, Toshiba, Hitachi, JVC va Sanyo kabi mashhur kompaniyalarning foydalari pasayib ketdi. Olinayotgan foydani ilgarigi darajasiga ko'tarish uchun kompaniyalar qanday yo'l tutishlari lozim?

Ushbu masalani hal etish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi;

1. Майкл Р. Байе. Управленческая экономика и стратегия бизнес. пер. с англ. М., «ЮНИТИ» 1999 г. 325 -370 ср.
2. Салимов Б. ва бош=алар Микрои=тисодиёт, дарслик, Т., «Шар=» 2001 й. 225 – 247 с.



Bozor tuzilmasi va nomukammal raqobat

Mukammal raqobatli bozor uchun xos bo'lgan sifatlari asosida faoliyat yurituvchi bozorlarni deyarli uchratib bo'lmaydi.

Mukammal raqobat va monopoliya – bozor tuzilmalarining ikki qutbiy tipidir.

Na monopolistik, na mukammal raqobatli hisoblanmaydigan bozorlar monopolistik raqobat nazariyalari va oligopoliya nazariyalari orqali ko'rib chiqiladi. Bu nazariyalar korxonalarda o'z mahsulotini tabaqalashtirish (differensasiya) uchun rag'batning vujudga kelishini, hamda narx belgilashda hamkorlikda faoliyat yuritish uchun omillarning paydo bo'lishini tushuntirib beradi.

Monopolistik raqobat, ham mukammal raqobatli va hamda monopoliya unsurlariga ega bo'lgan bozor tuzilmasi bo'lib hisoblanadi.

Monopolistik raqobat eng avvalo quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

- **birinchidan**, mahsulotni tabaqalashtirish (alohidalashtirish). Har bir korxona, boshqa korxona mahsulotlaridan farq qiluvchi mahsulot ishlab chiqaradi;
- **ikkinchidan**, mahsulotni alohidalashtirish natijasida, ishlab chiqa-ruvchi

tomonidan olingan, monopol xokimiyatning ma'lum bir ulushiga egalik qilish;

- **uchinchidan**, mijozlar safining barqarorligi;

Agar, mahsulot narxi ko'tarilsa, firma o'z xaridorlarining hammasini yo'qotmaydi. Monopolistik raqobatli firma mahsulotiga talab egiluvchanlik tavsifiga ega bo'lmaydi. Biroq, o'xshash mahsulotlarni sotuvchilarning ko'pligi, talab egri chizig'iga egiluvchanlik tavsifini beradi;

- **to'rtinchidan**, bozorda mustaqil harakat qiluvchi, raqiblarga farqsiz munosabatlarda bo'lish;
- **beshinchidan**, tarmoqqa kirish uchun, jiddiy to'siqlarning yo'qligi.

Monopolistik raqobatning iqtisodiyotga ta'sirini baholagan holda, bir qator holatlarni hisobga olish zarur:

1. Bu bozor tuzilmasida resurslar samarali taqsimlanmaydi, jamiyat, qanchalik ko'p mahsulot ishlab chiqarilsa, shuncha naf ko'rgan bo'lur edi.
2. Firmalar ishlab chiqarish o'lchamlari o'sishi ustivorliklaridan foydalanmaydilar.

Iste'molchilar bozorda sotuvchi topish uchun o'zlarini ko'p urintirmaydilar, chunki bozorda korxonalar soni ko'p bo'ladi. Ko'rsatilgan bozor tuzilmasi uchun narxdan tashqari raqobat xosdir. Monopolistik raqobatli firma boshqa ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlaridan farq qiluvchi mahsulot Yaratish rag'batiga ega bo'ladilar. Shu tahlit, korxona qisqa muddatli davrda talab egri chizig'ini o'ng tomonga siljitish va foydani ko'paytirish imkoniga ega bo'ladi. Narxdan tashqari raqobatning muhim vositasi reklama hisoblanadi. **Oligopoliya – bu, shunday bozor tuzilmasiki, unda bozorda uncha ko'p bo'lmagan firmalar hukmronlik qiladi, chunki, mavjud to'siqlar bozorga yangi ishlab chiqaruvchilar kirib kelishiga imkon bermaydi.** Oligopoliyalar uchun quyidagi asosiy jihatlar xosdir: o'zaro bog'liqlik (tarmoqda bir necha firmalar faoliyat yuritishsada, har bir firma raqibning bozorda o'zini to'tishidan tashvishda bo'ladi); bozorda bir turli yoki tabaqalangan mahsulotlarning mavjudligi; narxdan tashqari raqobatning narx bo'yicha raqobatdan ustunligi.

Narx bo'yicha birinchilik – bu bir korxonaga narxlarni o'z-gartirish huquqi beriladigan, qolgan narxlar unga qarab shakllanishini yo'lga qo'yadigan amaliyotdir. Bu holda, birinchilikni eng past xarajatli ishlab chiqarishga ega bo'lgan, birinchi bo'lib talab yoki xarajatlar o'zgarishiga javob bera oladigan firma qo'lga kiritishi mumkin. Bozor iqtisodiyotiga xos va uni harakatga keltiruvchi, taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi raqobat kurashidir. Raqobat kurashining ahamiyati shunchalik yuqoriki, usiz bozorni tasavvur etib bo'lmaydi, chunki u bozor iqtisodiyotining mazmuniga aylanib ketadi. Bozor sharoitidagi raqobat iqtisodiy raqobat bo'lib, u iqtisodiy jarayonda yuz beradi. Undagi asosiy maqsad bozor ishtirokchilarining erkin faoliyat yuritishlari uchun sharoitlar yaratishdan iboratdir. Iqtisodiy raqobat kurashida qatnashuvchilar bir - birlarini shaxsan tanishlari shart emas. Buning uchun avvalo bozor xususiyat'i, uning harakat qonuniyatlarini yaxshi bilgan, sezgan holda faoliyat ko'rsatish asos bo'lib xizmat qiladi. Raqobat kurashida barcha ishtirokchilar ham muvaffaqiyatga erishavermaydilar. Muvaffaqiyatga erishish uchun tajriba, bilim, matonat,

tavakkalchilik va albatta yirik sarmoyaga ega bo'lish talab etiladi. Raqobat kurashining asosiy mazmuni xaridorlarni o'ziga jalb qilish maqsadida sharoitlar yaratishdan iboratdir. Umuman, raqobat iqtisodchilar tasavvuri bo'yicha quyidagilarni bildiradi:

- **Bozorda turli, istalgan aniq mahsulot, resurslarni erkin holda sotuvchi va sotib oluvchilarning mavjud bo'lishi;**
- **Sotuvchi va xaridorlarning turli bozorlar yoki tarmoqlar doirasida erkin harakatda bo'lishi va istalgan paytda tarmoq yoki bozorni tark eta olish imkoniyatlarining mavjudligi.**

Raqobatning mohiyati shundan iboratki, har bir sotuvchi bozordagi juda ko'p miqdordagi sotuvchilar ishtirokida o'zining nisbatan kichik hissasi bilan umumiy taklifga ta'sir ko'rsata olmaydi. Ko'rinib turibdiki, sotuvchi yakka holda tovar yoki xizmat narxini o'zgartira olmaydi. Raqobat kurashi bozorda hukmronlikni inkor etadi, erkin iqtisodiy harakatda bo'lishni talab etadi. Raqobat kurashi shaxsiy manfaatlarni shunday yo'naltiradiki, natijada jamiyat manfaatlarining ro'yobga chiqarilishi ta'min etiladi.

Halol raqobat:

- qalbaki bellashuv, majburiy safarbarlikni tan olmaydi;
- boqimandalik, befarqlik, yuzakichilik, ko'zbo'yamachilik, kabi salbiy hollarga barham beradi;
- qarindosh - urug'chilikni, tanish - bilishchilikni, ma'muriy- buyruqbozlikni tan olmaydi.

Raqobat shunday omilki, u:

- ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarish jarayoniga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishga undaydi;**
- tadbirkorlikni rivojlantiradi;**
- ish bilan band xodimlarning ma'suliyatini va ish sifatini oshiradi;**
- qattiq mehnat intizomini o'rnatadi;**
- ichki bozorlarning tovarlar bilan ta'minlanishida va narxlarning arzonlashuvida muhim o'rin tutadi.**

Raqobatning iqtisodiy mazmuni to'g'risida etarlicha tasavvurga ega bo'lib, monopoliyalarning vujudga kelishi va faoliyat yuritish asoslari to'g'risida fikr yuritishimiz mumkin. **Monopoliyalar** raqobatga zid bo'lgan iqtisodiy tushuncha bo'lib, ular orqali ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchining tovar va xizmatlar bozorida hukmronlikka intilishi ifoda etiladi. Monopoliyalar ivojlanishi ma'lum tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Monopoliyalarning shakllanishiga XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etilishi katta turtki berdi va yirik ishlab chiqarish korxonalarining shakllanishiga sabab bo'ldi.

Raqobat kurashi to'g'risida to'liqroq tasavvurga ega bo'lish uchun, turli iqtisodiy tizimlarda raqobat kurashining tavsiflanishini taqqoslab ko'raylik:

Turli iqtisodiy tizimlarda raqobat kurashining tavsiflanishi

**Rejali iqtisodiyotda raqobat-ning
tavsiflanishi**

**Bozor iqtisodiyotida
raqobatning tavsiflanishi**

* Raqobat "sotsialistik musobaqa" bilan almashtirib kelindi. "Raqobat" so'zini ishlatish ta'qiqlanar edi. *Musobaqa kim o'zish, kim yaxshi natijalarga erishish uchun bo'lgan qalbaki bellashuv edi. Sifat uchun emas, "son" uchun harakat qilinardi.	* Raqobat rag'batlantiruvchi va iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchdir. Shu sababli u bozor iqtisodiyoti mexanizmida asosiy o'rin oladi. *Raqobat rejlasmaydi va qattiq nazorat ostiga olinmaydi. Raqobat-chilikni bozordagi: - talab va taklif; - narx; - Oligopoliya va monopollashuv darajasi; - davlatning antimonopol siyosati belgilaydi
*Sotsialistik musobaqadagi majburiy safarbarlik usuli: - tashabbuskorlik usulini so'ndirardi; - sifatni yaxshilash, ishlab chiqarish sarflarini pasaytirish imkonini bermas edi; - sotsialistik musobaqa ko'pincha miqdoriy ko'rsatkichlarga qarab bajarildi edi.	Raqobatda majburiy safarbarlik bo'lmaydi, Bu erda halol va erkin iqtisodiy raqobatni rivojlantirish evaziga ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar ustidan xaridorlarning hukmronligi o'rnatiladi.

Masalan, 1870-1890 yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 barobarga oshgan paytda, qalay eritish 56 marotabaga, neft' ishlab chiqarish hajmlari 25 marotabaga ortdi. Chunki, ushbu davrda, yirik ishlab chiqarish korxonalarigina fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga jalb etish imkoniga ega edilar.

Ishlab chiqarishning yiriklashuvida erkin raqobat kurashi yirik korxonalar foydasiga xizmat qiladi. Bu kurash mayda ishlab chiqaruvchi korxonalarning sinishiga va ularning yirik korxonalarga qaram bo'lishiga olib keladi. Monopoliyaning ijobiy va salbiy tomonlarini ham anglab olish lozim bo'ladi. Monopoliyalar katta sarmoyalarga egalik qilgan holda, yirik ishlab chiqarish muammolarini hal etishda ko'maklashishlari mumkin. Monopolistik faoliyat natijasida ishlab chiqarishning yiriklashuvi va bitta ishlab chiqaruvchi qo'lida to'planishi bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, monopoliyalarning mavjud bo'lishi:

- **bozordagi taklif miqdoriga ta'sir o'tkazish imkoniyatining mavjudligi;**
- **sun'iy tarzda narx belgilash orqali bozor muvozanatini izdan chiqarish;**
- **bozorga boshqa ishlab chiqaruvchilarning kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik kabi oqibatlarni keltirib chiqaradi.**

Monopoliyalar asosan ikki holatda vujudga keladi. Birinchi holatda, monopoliya yirik korxona tomonidan iqtisodiy nochor korxonalarni qo'shib olish natijasida shakllansa, ikkinchi holatda esa, monopoliya, olingan daromadlarning o'sib borishi evaziga shakllanadi. Raqobat bir tomondan ishlab chiqarishning yiriklashuviga ta'sir etadi. Chunki, raqobat natijasida ayrim korxona yoki firma iqtisodiy jihatdan yiriklasha borsa, ayrimlari bozorda to'g'ri mo'ljal

olaolmaganliklari tufayli, daromad olishdan mahrum bo'lishlari sababli, o'zlariga nisbatan iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan korxonalarga qaram bo'la boshlaydilar. Ular asosan qarz ya'ni kredit ko'rinishida qarz olishlari va o'z vaqtida uni qaytara olmasliklari natijasida, ularga dastlab, iqtisodiy jihatdan keyinchalik esa, huquqiy jihatdan ham qaram bo'lib qoladilar. Hozirgi kunda respublikamizda iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasini qayta qurishga, iqtisodiyotda monopolistik faoliyatni cheklash, raqobatchilik muhitini qaror toptirishga qaratilgan jadal iqtisodiy siyosat olib borilmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov milliy iqtisodiyotning tuzilmasini qayta qurish bo'yicha ishlab chiqilayotgan va amalga oshirilayotgan chora - tadbirlar to'g'risida gapirib, quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi:

“Respublika aholisining oziq - ovqat mahsulotlariga, talab katta bo'lgan tovarlarga, ayniqsa, bolalar va katta Yoshdagilarga mo'ljallangan tovarlarga bo'lgan eng zarur ehtiyojlarni qondirishni ta'minlash;

- o'z ishlab chiqarishimizni MDHning boshqa respublikalaridan va import bo'yicha keltiriladigan xom-ashyo, yoqilg'i, butlovchi buyumlar, texnologik asbob-uskunalar, shuningdek respublikaning o'zi ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan tayyor mahsulotlarga bog'liqligini kamaytirish;

- tez o'sib borayotgan mehnat resurslarining birinchi navbatda Yoshlarning ish bilan ta'minlanishiga, xalqning tarixiy an'analari va ko'nikmalariga, ishlab chiqarishni texnikaviy tashkil etishning zamonaviy talabalariga javob beruvchi mehnat sarflanadigan sohalarini Yaratish;

- qishloq xo'jaligi xom - ashyosi va mineral resurslarni to'la qayta ishlashga, raqobatga qobil tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko'zlab texnologik siklning tugallanganligi darajasini oshirish;

- respublikaning eksport imkoniyatlarini oshirishga, uning valyuta bilan to'lov qobiliyatini mustahkamlashni hal etishga bo'ysundirishni ko'zda tutadi. Un-yorma, meva sabzavot, go'sht-sut, vinochilik sanoatida quvvatlarni ko'paytirish va yangilash oziq - ovqat xom - ashyosi ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, o'z ishlab chiqarishimiz hisobidan aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishini yaxshilash imkonini beradi... qishloq xo'jaligi mashinasozligi dehqon (fermer) va tomorqa xo'jaliklari, chorvachilik va oziq - ovqat ekinlari etishtirish uchun texnika va ixcham mexa-nizasiya vositalari ishlab chiqarishga qisman qayta ixtisoslashtirishni amalga oshirish kerak bo'ladi. Xalq xo'jaligining xom - ashyoviy yo'nalishini bartaraf etish respublika iqtisodiyotining barqaror bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi, ish bilan ta'minlanmagan mehnat resurslarini ishlab chiqarishga jalb etishga, kadrlarning kasb darajasini oshirishga, mahsulotni chetdan keltirish va tashqariga chiqarishni muvofiqlashtirishga ko'maklashadi, asosiysi - O'zbekistonning mustaqilligiga, uning xalq turmush darajasining o'sishiga ishonchli kafolatlar yaratadi” (I. A. Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T. " O'zbekiston" 1998y. 168-171 b.)

Raqobat va erkinlikka asoslangan iqtisodiy faoliyat faqatgina, xilma - xil mulk shakllari teng huquqliligi kafolatlangan iqtisodiy tizimdagina amal qiladi. Ma'lumki, rejali iqtisodiyot sharoitida sotuvchining xaridor ustidan hukmronligi

mavjud bo'lib, korxonalar o'rtasidagi raqobat kurashi inkor etilar edi. Shuning uchun bu fikrimizni asoslash maqsadida prezidentimizning quyidagi fikrlarini keltirib o'tamiz: **"Biz iqtisodiy islohotlar strategiyasi va yo'lini shakllantirish, mexanizmini chuqur o'rganishimiz kerak. Bunda biz markazlashtirilgan ma'muriy - buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish - eski xo'jalik yuritish mexanizmini shunchaki yangilash yoki takomillashtirish emas, balki bir sifat holatidan, ikkinchi sifat holatiga o'tish ekanligini qayta - qayta ta'kidladik. Bu bir iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy boshqaruv tuzilmalarining boshqa iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy boshqaruv tuzilmalari bilan almashinuvidir."** (I. A. Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari" T. " O'zbekiston" 1998y. 186- b.)

Milliy iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini qaror toptirish, korxonalarning iqtisodiy erkin faoliyat yuritishlarini ta'minlash uchun, birinchi navbatda, xususiy mulk manfaatlarini har tomonlama qo'llab - quvvatlash, iqtisodiy taraqqiyotimizning kafolati bo'lgan mulkdorlar sinfining qaror topishiga ko'maklashish lozim bo'ladi. Bu haqda, prezidentimiz quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: **"Buning uchun korxona va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinlik berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy - buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish. Iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish. Ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvoning barqarorlashuvini ta'minlash iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarishning g'oyat muhim sharti bo'lmog'i kerak."** (I.A.Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari" T."O'zbekiston"1998y. 189-b.)

Monopolistik, nomukammal raqobat doim mavjud bo'lib kelgan, biroq, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida monopoliyalarning vujudga kelishi bilan, yanada kuchaydi. Ushbu davrda, kapitalning jamg'arilish va markazlashuv jarayoni kechadi, hissadorlik jamiyatlari vujudga keladi, tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslar ustidan nazorat o'rnatiladi. Monopolistik faoliyatning asosiy belgilari bo'lib, monopol narxlar va monopol foyda bo'lib hisoblanadi. Korxonaning monopol mavqei, korxonaning noYob resurslarga egalik qilishi tufayli, "tabiiy" ham bo'lishi mumkin, biroq, korxonalar sun'iy tarzda, tashkiliy usullarni qo'llab ham, monopoliyalarni tashkil etishlari mumkin. Ba'zi holatlarda davlat ma'lum bir ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqarishni o'z qo'lida ushlab turish maqsadida, monopolistik faoliyat yuritadi. Davlat monopoliyasi asosan davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan neft va gaz, energetika komplekslari, temir yo'llar, havo yo'llari va ayrim sanoat ishlab chiqarish sohalarida mavjud bo'ladi va ularning faoliyati davlat boshqaruv organlari rahbarligida amalga oshiriladi.

Amaliyotda monopolistik faoliyat yuritishning bir qator keng tarqalgan kartel, konsern, sindikat kabi shakllari mavjud:

Kartel' - ishlab chiqarishning bir tarmog'iga asoslangan korxonalar birlashmasini ifoda etadi. Kartelga a'zo bo'lgan korxonalar mustaqil ish yuritadilar, ishlab chiqarish xarajatlari va ishlab chiqarilgan mahsulotga ham egalik qiladilar. Lekin, birlashmaga a'zo bo'lgan korxonalar monopol foyda olish uchun, mahsulot ishlab chiqarish, sotish baholari to'g'risida kelishib oladilar.

Sindiklat birlashmasidagi korxonalar tijorat sohasida o'zaro kelishadilar, garchan ishlab chiqarishni mustaqil yuritsalarda, qolgan sohalarda buyurtmalarni taqsimlash, xom-ashyo sotib olish ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish tijorat bitimlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Trest - bunday birlashmaga a'zo bo'lgan korxonalar o'z faoliyatlarini to'liq trest idoralari orqali yuritadilar.

Konsern - ko'p tarmoqli korxonalar faoliyatining monopol-lashuvini ifoda etadi.

Monopolistik faoliyat yuritishning yana bir shakli **kombinat** bo'lib, bu bir turdagi ishlab chiqarish tarmoqlariga oid bo'lgan korxonalar birlashmasidir. Kombinatlar asosan bir tarmoqqa oid bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari birlashishida ifodalanadi va kombinat faoliyatining kengayishi **gorizontal** yo'nalishda amalga oshadi. Ayni paytda kombinat miqyosida **vertikal** ravishda ham integrasiya amalga oshiriladi. Bu diversifikasiya jarayonining bir qismi bo'lib, ilgari kombinat bir mahsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsada, keyingi davrlarda uning boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohalariga kirib borishida ifodalanadi.

Monopolistik faoliyat yuritish uchun ishlab chiqarishning diversifikasiyasi xos bo'lib, diversifikasiya asosan kapitalning to'planuvi va markazlashuvi asosida amalga oshadi. Birinchi holatda, monopolistik korxona o'z jamg'armalaridan foydalanish hisobiga boshqa tarmoq ishlab chiqarishlariga kirib borsa, ikkinchi holatda esa, tarmoqda faoliyat yurituvchi korxonalarning aksiyalarini sotib olish bilan ularning ishlab chiqarish faoliyatlari ustidan nazorat o'rnatiladi.

Ingliz iqtisodchisi M. E. Porterning tadqiqotlariga ko'ra, ma'lum bozordagi raqobat holatini quyidagi beshta raqobat kuchi bilan tavsiflash mumkin:

1. **Raqobatlashayotgan sotuvchilar o'rtasidagi musobaqalashuv.**
2. **Narx nuqtai nazaridan raqobatbardosh va o'rin bosar bo'lgan tovarlar o'rtasidagi raqobat.**
3. **Yangi raqiblarning paydo bo'lish xavfi.**
4. **Bozorga tovar va xizmatlarni etkazib beruvchilarning iqtisodiy salohiyati va savdo imkoniyatlari.**
5. **Xaridorlarning iqtisodiy salohiyati va savdo imkoniyatlari.**

- Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, raqobat - bu, qulay xo'jalik yuritish sharoitlariga ega bo'lish, yuqori foyda olish uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi iqtisodiy kurashdir.

Raqobatni tahlil etar ekanmiz, quyida bayon etiluvchi to'rt asosiy me'zonga muvofiq raqobatning quyidagi turlari farqlanadi:

1. **Sotuvchining hatti - harakati tavsifiga bog'liq tarzda:**

- a) siyosiy tavsifdagi raqobat;

b) oligopolistik raqobat farqlanadi.

2. Tovarining tabaqalanganlik darajasiga muvofiq:

- a) bir turli raqobat;
- b) gomogen va ko'p turli raqobat (tovarining tabaqalashuviz);
- s) geterogen raqobat farqlanadi.

3. Tarmoqqa kirib borish erkinligi darajasi jihatidan:

- a) ochiq raqobat;
- b) yopiq raqobat farqlanadi.

4. Qo'llaniluvchi harakatlarga bog'liq tarzda:

- a) narx bo'yicha raqobat;
- b) g'ayrinarxiy raqobat farqlanadi.

Raqobatning amalda bo'lish shakllariga mos tarzda bozor turlari farqlanadi. Bu haqda quyidagi jadvalni o'rganib to'liq xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladi.

Bozor tuzilmalarining turli xillarda bo'lishiga qaramay to'rtta raqobatga asoslangan bozor modellari farqlanadi:

1. Sof yoki mukammal raqobatga asoslangan bozor.

2. Monopolistik raqobatga asoslangan bozor.

3. Oligopolistik raqobatga asoslangan bozor.

4. Sof monopolistik raqobatga asoslangan bozor.

Sof mukammal raqobat, bozor iqtisodiyoti sharoitida turli firmalar bir xil tovarlarni ishlab chiqarishida va uni sotishida, ifodalanadi. Ular o'z mahsulot va xizmatlarini, hech qanday tashqi kuchlar ta'sirisiz talab va taklif qonunlari ta'siri ostida bozorga taklif etadilar va bozorda tarkib topgan narxlar asosida sotadilar. Firmalarning ishlab chiqarish jarayonidagi harakatlari erkin ko'rinishda amalga oshadi. Biz erkin raqobatni tahlil etar ekanmiz, uning uchun quyidagi xususiyatlar xos ekanligini ta'kidlab o'tmoqchimiz:

Bozorning asosiy turlari

Xaridorlar	Sotuvchilar		
	Ko'p	Bir nechta	Bitta
Ko'p	Polipoliya (mukammal raqobat)	Oligopoliya (sotuvchilar bir nechta, xaridorlar ko'p)	Monopoliya() sotuvchi bitta, xaridorlar esa ko'p
Bir nechta	Oligopsoniya (xaridor bir nechta, sotuvchi esa ko'p)	Bilateral' (ikki tomonlma) Oligopoliya (xaridorlar ham, sotuvchilar ham bir nechta)	Cheklangan monopoliya(sotuvchi bitta, xaridorlar esa bir nechta)
Bitta	Monopsoniya (xaridor bitta, sotuvchilar esa ko'p)	Cheklangan monopsoniya(bir nechta sotuvchilar va bitta xaridor)	Bilateral' monopsoniya (bitta sotuvchi va bitta xaridor)

- bozor ichida resurslarni safarbar etish imkoniyatlarining mavjudligi;
- bozorga erkin kirish va undan chiqib ketish;

- sotuvchilar hatti - harakatining bir - biriga bog'liq emasligi;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning bir turliligi;
- sotilayotgan mahsulot hajmi;
- narxlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish va bu ma'lumotlarning to'liqligi.

Monopolistik raqobatda turli firmalar har xil turdagi tovarlarni ishlab chiqaradilar va ularning kapitallari bir tarmoqdan ikkinchi tarmoqqa erkin o'tishi uchun sharoitlar mavjud bo'ladi. Ammo ular o'z faoliyatlarining ayrim tomonlarini deyarli sir tutadilar. Monopolistik raqobat uchun yuqori monopol narxlar va monopol foyda xosdir.

Oligopolistik raqobat - shunday bozor tuzilmasiki, unda bir necha yirik korxonalar hukmronlik qiladilarva o'zaro g'ayri narxiy raqobat kurashi olib boradilar.


Sof monopolistik raqobat, asosan bir tarmoqda bitta yoki bir necha yirik firmalarning monopolistik xukmronligi natijasida vujudga keladi. Bu monopolialarning faoliyatida raqobat ularning foydasi uchun xizmat qiladi. Tarmoq ishlab chiqargan mahsulot, deyarli, ular tomonidan monopol baholarda sotiladi va monopol foyda olinadi. Monopolialar monopol foydadan mahrum bo'lmaslik, xom- ashyolarga yakka egalik qilish, sotish bozorlarini saqlab qolish uchun boshqa firmalarga bu tarmoqqa kirishlariga yo'l bermaydilar.


Monopolialarning ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi, ularga ishlab chiqarish harajatlarini pasaytirishga, tovarlarni sotish bahosi talab va taklif asosida belgilashga sharoit yaratadi. Bu degani, monopolistik ishlab chiqarish jarayoniga ikkinchi bir firmani kirishi amri mahol. Bu esa ishlab chiqarishning qulay samarasiga salbiy ta'sir etadi. Chunki ishlab chiqarish resurslari monopolialar manfaati asosida taqsimlanadi. Agarda bu taqsimot keng ko'lamda amalga oshirilsa ishlab chiqarish harajatlari pasayishi va tovarlarning qiymatini arzonlashuviga olib kelishi mumkin.

Raqobatli bozor jarayonining katta ustunligi shundan iboratki, iqtisodiy muammolar shaxssiz tarzda hal etiladi.

Raqobatli bozorning yana bir muhim jihat tanlov erkinligidir. Mukammal raqobatning bunday sharti bajarilgan taqdirda, bozorga kirib kelish uchun to'siqlar bo'lmagan holda, tadbirkorlar kasb va faoliyat turini tanlashda erkin bo'ladilar. Bunda ular faqat shaxsiy moyilliklari, talab etiluvchi mablag'ni to'plash qobiliyati bilan cheklanadilar.

Quyida sof raqobat sharoitida bozor muvozanati chizma tarzda ifodalangan:






Chizmalarni tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki, raqobat sharoitida resurslardan eng yuqori samara bilan foydalaniladi.

Bozor iqtisodiyotining kushandasi bu monopoliyadir.

Monopolistik bozor sharoitida, monopolistlarning narxlarni ko'ta-rishga intilishlari importni rag'batlantiradi va mahalliy xususiy biznes uchun savdo shartlarini yomonlashtiradi. Raqobat mavjud bo'lgan holatda, korxonalar o'z xarajatlarini nazorat qilishga intiladilar va buning natijasida resurslardan oqilona foydalanish vujudga keladi.

Bu holatni quyidagi chizmada yaqqol ko'rish mumkin.



Chizmadan ko'rinib turibdiki monopoliya sharoitida jamiyat yutqazishlari shtrixlangan uchburchakni tashkil etadi. Sotish hajmi ko'paya borgan sari monopolist daromadlari kamaya boradi. Shuning uchun ham monopolist ishlab chiqarish hajmini bir hajmda ushlab turish va narxlar o'sishidan manfaatdor bo'ladi.

? Testlar:

1. Chegaraviy daromad:

- Monopolistik raqobatchilarda;
- Monopolistlarda;
- Kartel ishtirokchilarida;
- Kartelda ishtirok etmaydigan oligopolistlarda;
- Mukammal raqobatchilarda bozor narxidan past bo'lmaydi.

2. Monopoliya va monopolistik raqobatli firma usun xos bo'lgan ulushiyl jihatlar.

- a) $MR \geq MC$ shartini bajarish chog'ida foydani maksimallashtirish;
- b) Mahsulotni differensiasiyalashda reklamadan foydalanish;
- c) O'rtacha xarajatlarning uzoq muddatli egri chizig'ining minimal nuqtasida mahsulot ishlab chiqarish;
- d) Uzoq muddatli davrda nol' foyda.

1. Talab siniq egri chizig'i, nima uchun:

- a) Oligopoliya yirik firma hisoblanishini;
- b) Oligopoliya bozor tuzilmasida kelishuv qiyin ekanligini;
- c) Oligopoliya tomonidan belgilangan narxlar barqaror ekanligi;
- d) Iste'molchilar oligopolistik bozor ishlab chiqaruvchilaridan mahsulotni sotib olishni ma'qul ko'rishlarini tushuntirib beradi.

1. Narx bo'yicha birinchilik bozorning ... tipi uchun xosdir.

2. Oligopolistik bozor tuzilmasi uchun:

- a) Unchalik ko'p bo'lmagan firmalarning mavjudligi;
- b) Firmalarning tarmoqqa erkin kirishi;
- c) Narxlar ustidan nazorat;
- d) Firmalarning o'zaro bog'liqligi xos emas.

6. Moslikni o'rnatish:

1. Monopolistik raqobat	a) mahsulotni alohidalashtirish (differensiasiyalash). b) bozorda yagona iste'molchi hukm-ronligi s) sotuvchilarning ko'pligi. d) o'zaro bog'liqlik e) ko'p sonli firmalarning faoliyat yuritishi. f) tarmoqqa erkin kirish va chiqish shakli.
2. Oligopoliya	g) talab siniq egri chizig'i.
3. Monopoliya	h) $MC \geq MR$ me'zoni i) narx bo'yicha birinchilik

7. Kartel' kelishuvi – bu ... belgilash sohasidagi kelishuvdir.

8. Oligopolistik bozor tuzilmasi:

- a) Korxonaning tarmoqqa kirishida jiddiy qiyinchiliklarni engib o'tishi;
- b) Korxonaning bozorda narx belgilash qobiliyati;
- c) Tarmoqda bir necha yirik firmaning faoliyat yuritishi;
- d) Chegaraviy daromadlar va chegaraviy xarajatlarni tenglashtirib, foydani maksimallashtirish;
- e) Korxona tomonidan bir turli va tabaqalashgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'zda tutadi;
- f) Yuqorida keltirilgan barcha javoblar to'g'ri;
- g) Faqat d va e javoblar to'g'ri.

? Asosiy tushunchalar va terminlar:

- a. Nomukammal raqobat.
 - b. Kartel'.
 - c. Bozor konsentraciyasi.
 - d. Yashirin kelishuv.
 - e. Talab "siniq egri chizig'i".
 - f. O'yinlar nazariyasi.
 - g. Narx bo'yicha birinchilik
 - h. Nesha muvozanati
 - i. Narxlar urushi.
1. Narxlarni oshiruvchi yoki pasaytiruvchi ayni paytda boshqa firmalar ham bozorda narx shakllanishi borasida uning izidan boruvchi, oligopolistik bozordagi firma.
 2. Bozorda bir yoki bir necha yirik firmaning ustunlik qilishi darajasi.
 3. Korxona yoki shaxslarning murosasiz manfaatlari asosidagi iqtisodiy xulq atvorni tahlil etadi.
 4. Raqobat sharoitida eng oqilona strategiya tanlashga asoslangan uyin qarori.
 5. Narx ustidan nazorat qilish maqsadida ishlab chiqarish hajmlarini cheklash to'g'risida o'zaro kelishuv tuzgan firmalar guruhi.
 6. Firmalarning ochiqcha kelishuvni chetlab o'tish, yashirincha holda narx va ishlab chiqarish hajmini kelishib olish holati.
 7. Oligopolistik bozorda raqobatlashayotgan firmalar tomonidan narx-ning navbatdagi pasaytirilishi.
 8. Oz bo'lsada narx ustidan hukmronlik mavqeiga ega bo'lgan ikki yoki undan ko'p bo'lgan sotuvchilarning bozorda raqobatlashishi.
 9. "Raqobatchilar narxning tushirilishini yoqlaydilar, biroq narx oshirilishini tarafdori bo'lmaydilar" – degan nuqtai nazarga asoslangan oligopolistik mahsulotiga talab egri chizig'i.

? To'g'ri – noto'g'ri:

1. Mukammal raqobatli bozorda firmalar, monopolistik raqobatga qaraganda ko'proq, turli tuman tovarlarni taklif etadilar.
2. Agar, oligopolistik bozorda korxona narxni yoki ishlab chiqarish hajmini tushirsa yoki oshirsa, bu holat, raqobatchi firmalarning sotish hajmi va foydalariga ta'sir etadi.
3. Monopol raqobatli bozor uncha ko'p bo'lmagan korxonalar mavjudligi bilan tavsiflanadi.
4. Monopoliyalar doimo noqonuniydir.
5. Trest va kartel' aynan o'xshash tushunchalardir.
6. Monopolistik raqobatli bozorlarda resurslardan samarali foydalanish darajasi ta'min etilmaydi.
7. Oligopolistik narxli raqobat usullarini ma'qul ko'radilar.

? Mashq va masalalar:

1. Oligopolistik firma velosiped savdosi bilan shug'ullanadi. Firma tovarining chegaraviy xarajatlari 25 dollarni, chegaraviy daromadi – 45 dollarni, yalpi o'rtacha xarajatlari – 50 dollarni tashkil etadi. Quyidagi shartlarning qaysi birida firma o'zining eng yuqori foydasini ta'min etadi:
 - a) Narxni pasaytirish va ishlab chiqarish hajmini kamaytirish;

- b) Narxni pasaytirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish;
 - c) Narxni oshirish va ishlab chiqarish hajmini kamaytirish;
 - d) Narxni oshirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish.
2. Quyidagi keltirilgan har bir holat uchun, mos bozor tuzilmasini toping:
- a) Mukammal raqobat;
 - b) Monopoliya;
 - c) Monopolistik raqobat;
 - d) Oligopoliya ;
 - e) Monopsoniya.
3. Bozor konsentrasiyasi normasi (me'yori) tarmoqning umumiy sotish hajmidagi turli yirik firma ulushini o'lchaydi. Sizning fikringizcha, bu ko'rsatkich uchun qanday kamchiliklar xos?
- a) Ushbu bozor qanday mahsulotlardan tashkil topganligini aniq aniqlash qiyin;
 - b) Firma xulq - atvoriga salohiyatli raqobat ta'sirini inkor etadi;
 - c) Importga farqsiz bo'ladi va bozorda konsentrasiyalashuv darajasini ortiqcha baholaydi;
 - d) Mahalliy va mintaqaviy darajada konsentrasiyalashuv darajasini hisobga olmaydi;
 - e) To'rtta yirik firma o'rtasida sotishning taqsimlanish ulushlarini hisobga olmaydi;
 - f) Barcha javoblar to'g'ri.
4. Qaysi bozor tuzilmasida – sof raqobat (S. R.), sof monopoliya (S. M.), Oligopoliya (O.), monopolistik raqobat amal qiladi:
- a) Soatsozlik ustaxonasi;
 - b) Shahar jamoat transporti;
 - c) Telefon tarmog'i;
 - d) Sigaret ishlab chiqaruvchi;
 - e) Avto xizmat;
 - f) Alyuminiy ishlab chiqaruvchi firma;
 - g) Ferma;
 - h) Oziq - ovqat do'koni.



Mustaqil ishlash uchun

Odatda aviakompaniyalar ta'til, bayramlar paytida aeroportlar oldida avtomobillarni to'xtash joyi uchun oddiy kunlardagiga nisbatan ancha yuqori narx belgilashadi. Nima uchun kompaniyalar bunday yo'l tutishadi?

Ushbu masalani hal etish uchun quyidagi adabiyotlar bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi;

- 3. Майкл Р. Байе. Управленческая экономика и стратегия бизнес. пер. с англ. М., «ЮНИТИ» 1999 г. 490 - 495 стр.
- 4. Салимов Б. ва бош=алар Микрои=тисодиёт, дарслик, Т., «Шар=» 2001 й. 225 – 247 с.



Milliy ishlab chiqarish hajmi, milliy daromad va narxlar darajasini o'lchash

Mamlakatning iqtisodiy holati tahlili yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi, milliy daromad, jamiyat daromadlari va xarajatlari tuzilmasini aks ettiruvchi Milliy hisoblar tizimiga asoslanadi.

Milliy hisoblar tizimini (MHT) – bozor iqtisodiyoti kategoriya-larida takror ishlab chiqarish jarayonlari va natijalari va shart-sharoitlarini tavsiflovchi bir tizimga solingan tavsiflar, o'zaro bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidir.

Ishlab chiqarish o'lchamlarini o'lchash, iqtisodiy rivojlanish sub'ektlarini aniqlash – MHT asosida hal etiladigan muhim masaladir. **MHTning markaziy vazifasi – asosiy iqtisodiy bog'liqliklar, iqtisodiyot tuzilmasi, moliyaviy resurslarning shakllanishi va foydalanilishi, kapital harakatini aks ettirishdan iboratdir.**

Bu masala o'zaro muvofiqlashtirilgan ko'rsatkichlar yordamida hal etiladi.

Milliy ishlab chiqarish hajmlarini o'lchashga xizmat qiluvchi asosiy ko'rsatkich sifatida odatda, yil davomida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovar va xizmatlarning puldagi qiymatini ifoda etuvchi yalpi milliy mahsulot ko'rsatkichidan foydalaniladi. YaMMni hisoblashda oraliq mahsulotlar hisobga olinmaydi. Boshqacha aytganda, **YaMM milliy iqtisodiyotda barcha korxonalar tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisidir.**

Ko'rsatkichlar yig'indisi va tasnifi MHT bloklari orqali ro'yobga chiqariladi:

- **iqtisodiyot uchun yaxlit holdagi, jamlanma hisoblar;**
- **sektor hisoblari;**
- **iqtisodiyot tarmoqlari uchun hisoblar;**
- **“qolgan dunyo (xorij)” sektori uchun bir qator o'zaro bog'liq hisoblar.**

Milliy hisoblar tizimini quyidagi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimi sifatida tasavvur qilishi mumkin:

- 1. Yakuniy foydalanish narxlarida yalpi ichki mahsulot.**
- 2. Xorijdan olingan birlamchi daromadlar sal'dosi.**
- 3. Yalpi milliy daromad (1+2).**
- 4. Xorijdan olingan joriy transfertlar sal'dosi.**
- 5. Tassarufdagi yalpi milliy daromad (3+4).**
- 6. Milliy yakuniy iste'mol.**
- 7. Milliy jamg'arma (5-6).**
- 8. Xorijdan olingan kapital transfertlari sal'dosi.**
- 9. Investisiyalarni moliyalashtirishning umumiy manbalari (7+8).**
- 10. Yalpi jamg'arma (YaIM dan foydalanish elementi sifatida),**
- 11. Er va boshqa ishlab chiqarilmaydigan aktivlarni xarid qilish xarajatlari (sotishni chegirib tashlagan holda).**

12.Sof kreditlash (sof qarzdorlik (9-10-11)).

Milliy hisoblar tizimi quyidagi vazifalarni ado etishga xizmat qiladi:

1. **iqtisodiy siyosat;**
2. **iqtisodiy bashoratlash;**
3. **aholi ijtimoiy qatlamlari va turli mamlakatlar aholisi turmush darajasini taqqoslash;**
4. **iqtisodiy nazariyani amaliyot bilan bog'lash.**

Milliy hisoblar tizimi tovar va xizmatlarni yaratish, joylashtirish, yo'qotishni ifoda etuvchi operatsiyalarni hisobga olishga xizmat qiladi. Ushbu operatsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- **tovar va xizmatlar bilan bog'liq operatsiyalar;**
- **taqsimlash operatsiyalari;**
- **moliyaviy operatsiyalar.**

Milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlari tizimida YaMM ko'rsatkichi alohida o'rin tutadi. YaMMni o'lchashda quyidagi uch usuldan foydalaniladi:

- **xarajatlar usuli;**
- **daromadlar usuli;**
- **qo'shilgan qiymatlarni jamlash usuli.**

Quyidagi jadvalda YaMMni o'lchashning ikki usuli o'z ifodasini topgan:

No	YaMMni tovar va xizmatlar sotib olishga mo'ljallangan barcha xarajatlar bo'yicha o'lchash	Shartli belgilar	Miqdor
1.	Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari	C	
2.	Biznesga investisiya xarajatlari yoki Yalpi xususiy ichki investisiyalar	I	
3.	Tovar va xizmatlar bo'yicha davlat xaridi	G	
4.	Sof eksport	Xp	
	Jami: YAMM = C + I + G + Xp	Y	
	YaMMni barcha daromadlar bo'yicha o'lchash		
1.	Iste'mol qilingan kapital hajmi	A	
2.	Biznesga egri soliqlar	T	
3.	Yollanma ishchilarning ish haqlari	W	
4.	Ijara haqi	R1	
5.	Foiz stavkasi	R	
6.	Yakka qo'yilmalardan daromadlar	P	
7.	Korporatsiyalar foydasiga soliqlar	TR	
8.	Dividendlar	P1	
9.	Taqsimlanmagan foyda	P2	
	Jami: YaMM = A + T + W + R1 + R + P + TR + P1 + P2	Y	

Odatda YaMMning nominal va real qiymatlari farqlanadi.

Nominal YaMM - bu, joriy davr narxlarida hisoblangan YaMM qiymatidir.

Real YaMM esa, narxlar darajasi o'sishini chegirib tashlagan holda hisoblangan YaMM qiymatini ifoda etadi.

Nominal va real YaMM qiymatlari nisbati YaMM deflyatori to'g'risida xulosa hosil qilishga imkon yaratadi.

Milliy hisoblar tizimi to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lish uchun quyidagi chizmaga murojaat etamiz:

YAMM	NX	Xorijdan sof tushumlar	Amortizasiya		
	G	YaIM	SMM	Egri soliqlar	
	I			Milliy daromad (MD)	Foiz va renta daromadlari
	C				Foyda
					Yakka tartibda bandlarning daromadlari
					Yollanma ishchilarga to'lovlar
YaMM XARAJATLAR TUZILMASI		YaIMning aniqlanishi	SMMning aniqlanishi	MDning aniqlanishi	MDda OMILLAR ULUSHI

? Asosiy tushunchalar va terminlar:

- Sof investisiyalar.
 - YaMMni daromadlar oqimi bo'yicha hisoblash usuli.
 - Egri soliqlar.
 - Ikki yoqlama hisob.
 - Yalpi xususiy ichki investisiyalar.
 - Shaxsiy iste'mol xarajatlari.
 - Nominal YaMM.
 - Amortizasiya.
 - Milliy daromad.
 - Foiz.
 - Yalpi milliy mahsulot.
- Yil davomida mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha yakuniy tovar va xizmatlarning umumiy bozor qiymati.
 - Yalpi investisiyalar minus amortizasiya.
 - Korxonalar ishlab chiqarish xarajatlariga kirituvchi, soliqlar; ular tovar va xizmatlar narxini oshirish yuli bilan iste'molchilar zimmasiga yuklatiladi.
 - Milliy ishlab chiqarish hajmini o'lchashda, unga oraliq tovarlar qiymatini qo'shishda yuzaga keluvchi bir xil tovar (xizmat) qiymatini bir martadan ko'p hisobga olish.
 - Ushbu yilda mahsulot ishlab chiqarish hajmidan olingan barcha daromadlarni

- jamlash.
6. Ma'lum muddat ichida iste'mol qilingan kapital qiymatiga teng bo'lgan, yillik ajratmalar.
 7. Puldan foydalanganlik uchun to'lov.
 8. Sof milliy mahsulot minus egri soliqlar.
 9. Uy xo'jaliklarining iste'mol buyumlari va xizmatlarini xarid etishga yunaltirilgan xarajatlari.
 10. Ishlab chiqarish jarayonlari va tovar moddiy zahiralarini to'ldirish uchun mo'ljallangan yangidan ishlab chiqarilgan ishlab chiqarish vositalariga xarajatlar.
 11. Joriy narxlarda ifodalangan YaMM hajmi.

? To'g'ri – Noto'g'ri:

1. Real yalpi milliy mahsulot – bu joriy narxlarda o'lchangan, yil davomida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymatidir.
2. Qo'shilgan qiymat va yakuniy mahsulot qiymati kattaliklari o'zaro teng.
3. Oila qarovi bilan bog'liq uy bekasi xizmatlari SMMni hisoblashda e'tiborga olinadi.
4. Transfert to'lovlari oluvchi, buning uchun davlatga biror narsa berishi shart.
5. SMMni hisoblashda sof investisiyalar hisobga olinadi.
6. YaMM hajmi jamiyatning sof iqtisodiy farovonligini aniq aks ettiradi.
7. Shaxsiy va tasarrufdagi daromadlar hajmi teng.
8. SMM Milliy daromaddan amortizasiya qiymatiga ortiqdir.
9. Tovlar zahiralarining sotilishi yalpi va sof investisiyalarning qisqarishiga olib keladi.
10. Sof milliy mahsulot o'zgarishlarining yillar bo'yicha taqqoslanma tahlili taqqoslanma narxlardan foydalanishni ko'zda tutadi.

? Mashq va masalalar:

1. Quyidagi jadvalda uch yil uchun Amerika qo'shma shtatlarining nominal YaMM qiymati keltirilgan (mlrd. dollar hisobida).

Yil	Nominal YaMM	Narxlar darajasi indeksi (%)	Real YaMM.
1929	104	121	---
1933	56	91	---
1939	91	100	---

- a) Qaysi yil asos (bazis) yil hisoblanadi?
- b) 1929 yildan 1933 yilgacha bo'lgan davrda narxlar darajasi qanday o'zgargan. 1933 yildan 1939 yilgacha bo'lgan davrdachi?
- c) Har bir yil uchun real YaMMni hisoblang.

2. Quyidagi ma'lumotlar asosida:

- a) YaMMni daromadlar oqimi bo'yicha;
- b) YaMMni xarajatlar oqimi bo'yicha;
- c) SMM hajmini;

d) Milliy daromad hajmini hisoblang.

Hisob	Mrd. dollar
Kredit uchun foiz.	12
Yalpi xususiy investisiyalar.	55
Ish haqi va yordam pullari.	218
Korporasiyalar foydasi.	113
Xususiy tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan egri soliq-lar, nosoliq majburiyatlar va transfert to'lovlari.	22
Ijaraga olingan mulk egalari uchun renta to'lovlari.	20
Korporasiyalar foydasiga soliq.	50
Tovar va xizmatlar sof eksporti.	9
Tovar va xizmatlarning davlat xaridlari.	90
Sof xususiy investisiyalar.	45
Mulk daromadlari.	21
Davlat korxonalariga sof subsidiyalar.	2
Aholiga transfert to'lovlari	23
Iste'mol xarajatlari.	260

3. Jamiyatning sof iqtisodiy farovonligi to'g'risida fikr yuriting. Nima uchun, YaMM ko'rsatkichi jamiyat a'zolarining iqtisodiy farovonligini aniq aks ettirmaydi?



Iqtisodiy o'sish

Iqtisodiy o'sish nazariyasi javob berishga intiladigan muhim masala uzoq muddatda, ya'ni to'la bandlik sharoitida qanday tarzda nominal mahsulot real hajmini oshirish mumkinligiga borib taqaladi. Bu masalaga javob amaliy ahamiyatga ega, chunki masalaning echimi resurslar cheklanganligini engib o'tishga va jamiyat ehtiyojlarini qon-dirish uchun iqtisodiyot imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Iqtisodiy o'sish ikki usul bilan o'lchanadi:


1. Real YaMM hajmining ma'lum muddat davomida o'sishi.
2. YaMM hajmining aholi jonboshiga nisbatan o'sishi.

Iqtisodiy o'sish omillarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Taklif omillari – tabiiy resurslar, mehnat resurslari, asosiy kapital hajmi, texnologiya.
2. Talab omillari – umumiy xarajatlar darajasi.
3. Taqsimlash omillari – resurslardan samarali foydalanish.

Iqtisodiy o'sish resurslardan foydalanish tavsifiga ko'ra: ekstensiv, intensiv va aralash tiplarga bo'linadi. Iqtisodiy o'sishga atrof muhit muhofazasiga katta sarmoyalar ajratilishi, keskin ijtimoiy kayfiyat kabi omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi

va shunday omillar borki ular iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. Masalan, bu omillar qatoriga jamiyatdagi sog'lom ijtimoiy, madaniy va siyosiy muhitni qo'shish mumkin.



Iqtisodiy o'sishda davlatning o'ri yuzasidan iqtisodchilar fikrlashlarida tafovutlar mavjud.

Keyns maktabi iqtisodiy o'sishni, birinchi navbatda talab omillari bilan bog'laydi va davlat fiskal va pul-kredit siyosati yordamida iqtisodiy o'sishni qisqa muddatli davrda tartibga solishni mumkinligini ta'kidlaydi.

Taklif iqtisodiyoti nazariyasi tarafdorlari iqtisodiy o'sish birinchi navbatda, taklif omillariga bog'liq va puxta o'ylangan soliqqa tortish tizimi orqali rag'batlantirilishi lozim deb hisoblaydilar.

Iqtisodiy o'sishning bosh maqsadi moddiy farovonlikning o'sishida ifodalanadi va quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha daromadlarning o'sishi;
- bo'sh vaqtning ko'payishi;
- ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar turli tumanligi va sifatining yaxshilanishi.

Iqtisodiy o'sishni tahlil etishda "ishlab chiqarish samaradorligi" va "iqtisodiy o'sish sifati" tushunchalarini alohida o'rganish talab etiladi.

Iqtisodiy o'sishning "ishlab chiqarish samaradorligi" o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- tovar va xizmatlar sifatining yaxshilanishi, mahalliy va jahon bozorlarida tovar va xizmatlar raqobatbardoshligining o'sishi;
- ilgari qondirilmagan ehtiyojlarni qondirish imkonini beruvchi Yangi

tovarlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish;

- **xalqaro mehnat taqsimoti tizimida mamlakatning hududiy ustivorliklarini hisobga olgan holda, ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va mujassamlashuvining kuchayishi;**
- **boshqaruv faoliyatining takomillashuvi;**
- **sarflarni qisqartirish imkonini beruvchi yangi texnologiyalarni o'zlashtirish.**

"Iqtisodiy o'sishning sifati" quyidagilardan tashkil topadi:

- **aholi moddiy farovonligining yaxshilanishi;**
- **shaxsning barkamol rivojlanishi asosi sifatida bo'sh vaqtning ko'payishi;**
- **ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi;**
- **inson kapitaliga investisiyalarning o'sishi;**
- **inson hayot faoliyati xavfsizligining ta'minlanishi;**
- **mehnatga qobiliyatsiz va ishsizlarning ijtimoiy himoyalanganligi;**
- **to'la bandlikni qo'llab quvvatlash.**

? Asosiy tushunchalar va terminlar:

- a) Inson kapitaliga investisiyalar.
 - b) Innovasiya.
 - c) iqtisodiy o'sish.
 - d) Ekstensiv iqtisodiy o'sish.
 - e) Intensiv iqtisodiy o'sish.
1. Real YaMM hajmining mutloq qiymatda yoki aholi jonboshiga hisobida o'sishi.
 2. Xodimlar qobiliyatlarini rivojlantirish va malakalarini oshirishga yunaltilgan, investisiyalar.
 3. Yangi texnologiyalarni birinchilardan bo'lib, tijoriy qo'llash.
 4. Intensiv omillarga asoslangan iqtisodiy o'sish.
 5. Ekstensiv omillarga asoslangan iqtisodiy o'sish.

? To'g'ri – noto'g'ri:

1. Agar, YaMM hajmi aholi soni o'sishiga nisbatan tez sur'atlarda o'ssa, u holda aholi jonboshiga YaMM kamayadi.
2. Rivojlangan mamlakatlarda texnikaviy taraqqiyot mehnat unumdorligi o'sishining asosiy omili hisoblanadi.
3. Iqtisodiy o'sish, inson kapitaliga qo'yilgan investisiyalarga bog'liq emas.
4. Mamlakatda ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot hajmi ish vaqti soat miqdorining mehnat unumdorligiga nisbatiga teng.
5. Real YaMM hajmi mehnat unumdorligiga bo'lingan mehnat xarajatlariga teng.
6. Tabiiy resurslar – O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning muhim omilidir.
7. Ish vaqti miqdorining o'sishi – iqtisodiy o'sishning intensiv omili.
8. Xodimlar sonining o'sishi – iqtisodiy o'sishning ekstensiv omili.
9. Iqtisodiy o'sish cheklanmagan ehtiyojlar va cheklangan resurslar o'rtasidagi ziddiyatni keskinlashtiradi.

? Testlar:

1. Moslikni o'rnating (iqtisodiy o'sish omillari):

- | | |
|------------------------|--------------------------------------|
| 1. Talab omillari | a) tabiiy resurslar |
| 2. Taklif omillari | b) mehnat resurslari |
| 3. Taqsimlash omillari | c) umumiy xarajatlar darajasi |
| | d) asosiy kapital hajmi |
| | e) resurslardan samarali foydalanish |
| | f) texnologiya |

2. Quyida sanab o'tilgan ko'rsatkichlardan qaysi biri iqtisodiy o'sish dinamikasini (sur'atlarini) yuqori saviyada aks ettiradi:

- a) YaMM o'zgarishi;
- b) YaIM o'zgarishi;
- c) Milliy daromadning o'zgarishi;
- d) Sof mahsulot o'zgarishi;
- e) Fond qiymatining o'sishi;
- f) Eksport o'sishi;
- g) Investitsiyalarning o'zgarishi.

3. Iqtisodiy o'sish:

- a) Inflyasiya sur'atlarining o'sishi;
- b) Mul'tiplikator samarasi;
- c) Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ining o'ngga siljishi;
- d) Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ining chap tomonga siljishi;
- e) Narxlar darajasining o'sishi.

4. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysi biri to'g'ri?

- a) Mahsulot hajmi q mehnat unumdorligi / ish vaqti soat miqdori;
- b) Mehnat unumdorligi q ish vaqti soat miqdori / mahsulot hajmi;
- c) Mahsulot hajmi q ish vaqti soat miqdori x mehnat unumdorligi;
- d) Ish vaqti soati miqdori q mehnat unumdorligi x mahsulot hajmi;
- e) Mehnat unumdorligi q ish vaqti soati miqdori x mahsulot hajmi;

5. Mehnat unumdorligi:

- a) Kapital xarajatlari mehnat xarajatlari;
- b) Real mahsulot hajmining ish vaqti soati miqdoriga;
- c) Real mahsulot hajmining aholi soniga;
- d) Ish vaqti soati miqdorining YaMM real hajmiga;
- e) Kapital xarajatlari real mahsulot hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi.

6. Quyida sanab o'tilganlardan qaysi biri mehnat unumdorligi o'sishiga ta'sir ko'rsatadi:

- a) Texnologik o'zgarishlar;
- b) Xodimlar sonining o'sishi;
- c) Xodimlar malakasi va bilim darajasi;
- d) Ishlab chiqarish o'lchami samarasi;
- e) Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi.

? *Mashq va masalalar:*

1. Keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi kattaliklarni aniqlang:

Yil	Aholi (mln. kishi).	YaMM real hajmi (mlrd. dollar).	Aholi jonboshiga YaMM real hajmi (dollar).
1	30	9	----
2	60	24	----
3	90	45	----
4	120	66	----
5	150	90	----
6	180	99	----
7	210	105	----


a) Aholi jonboshiga real YaMM hajmi

b) Yillar bo'yicha aholi soni va real YaMM o'sishi sur'atlari;

c) 7-yilni 6-yilga taqqoslagan holda aholi jonboshiga real YaMM o'sish sur'atlari.

2. Iqtisodiy o'sish turlari to'g'risida fikr yuriting. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasini tahlil qilib ko'ring va xulosalar yasang.

? *Krossvord: Reklama*



Eniga: 1. Yangi pulni muomalaga chiqarish. 3. Pul yoki oltin jamg'armasi. 5. Qarzlarni to'lay olmaydigan qarzidor. 7. Savdodan kelgan pul. 8. Maxsulotning sof og'irligi. 9. Tarozining narsa qo'yiladigan joyi. 10. Bank tomonidan qarz berish, tarqatish. 11. Tovarlarini qayta sotish bilan shug'ullanuvchi shaxs. 12. Cheklangan kredit summasi. 13. Ish olib borish uslubi. 14. Xo'jalik faoliyatini yuritish maqsadidagi jismoniy shaxslar ixtiyoriy birlashmasi turi. 15. Kafillik, garantiya.

Bo'yiga: 1. Mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni chet elga sotish. 2. Tovarlar namunasi ko'rgazmasi. 3. Savdo chaqirig'i. 4. Yozma qarz majburiyati. 5. Mehnatga qobiliyatli aholining ishlashi. 6. Egasiga foyda keltiradiga faoliyat.



Xalqaro savdo va savdo siyosati

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichi jahon miqyosida milliy iqtisodiyotlar o'zaro bog'liqligining yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham, iqtisodiyot nazariyasi fanida ochiq iqtisodiyot muammolarini o'rganish lozimdir.

Ochiq iqtisodiyot iqtisodiyotning yaxlitligini, jahon xo'jaligiga, jahon bozoriga integrasiyalashgan yagona iqtisodiy majmuani nazarda tutadi. Ochiq iqtisodiyot bu turli hamkorlikdagi tadbirkorlik shakllaridan faol foydalanish, erkin tadbirkorlik hududlari tashkil etish, tashqi savdoda davlat yakka hokimligini yo'qotish, xalqaro mehnat taqsimotida davlatning nisbiy ustunliklaridan samarali foydalanishdir.

Iqtisodiyotning eng muhim o'lchovlaridan biri ma'lum iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va xalqaro raqobatbardoshlik doirasida kapital qo'yilmalar, texnologiyalar, axborot oqimini rag'batlantiruvchi qulay investision muhitdir. Ochiq iqtisodiyot ichki bozorning chet el sarmoyasi, tovarlari, texnologiyalari, axborotlari, ishchi kuchi oqimi uchun ochiqligini nazarda tutadi.

Ochiq iqtisodiyotning avfzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- **ishlab chiqarish ixtisoslashuvi va mujassamlashuvining chu-qurlashishi;**
- **resurslarni samarali taqsimlash;**
- **xalqaro iqtisodiy aloqalar tizimi orqali milliy iqtisodiyotda jahon tajribasini keng qo'llash;**
- **raqobat kurashining kuchayishi.**

Ochiqlik miqdorining 1 - darajali indikatoriga eksport va importning Yalpi ichki maxsulotdagi ulushini kiritish mumkin. Ularning kombinatsiyasi alohida milliy iqtisodiyotlarning jahon bozori bilan aloqalarining miqyosi haqida tushuncha beradi. Shunday qilib, eksportning YaIMga munosabati eksport kvotasi sifatida aniqlanadi:

$$Ek = E/YaIM \times 100\%,$$

bu erda **Ek** - eksport kvotasi, **E** - eksport xajmi.

Agar **Ek** q 10% bo'lsa, iqtisodiyotning ochiqligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Iqtisodiyot ochiqligining boshqa ko'rsatkichi import bilan YaIM munosabatidan kelib chiquvchi import kvotasi ko'rsatkichidir:

$$Ik = I/YaIM \times 100\%,$$

bu erda **Ik** - import kvotasi, **I** - import hajmi.

Ochiqlikning kompleks ko'rsatkichlaridan biri deb, odatda tashqi savdo kvotasi ko'rsatiladi:

$$TSk = TS/YaIM \times 100\%,$$

bu erda **TSk** - tashqi savdo kvotasi, **TS** - tashqi savdo oborotining hajmi.

Jahon xo'jaligi tuzilmasi xalqaro iqtisodiy aloqalarning: tovar va



O'zbekiston iqtisodiyotining, bir necha o'n yillar davomida bo'lgani kabi tashqi dunyodan ajralib qolishi hollariga barham berilganligi, mustaqil tashqi iqtisodiy yo'l shakllantirilib, amalga oshirilganligi iqtisodiy islohotlar birinchi bosqichining eng muhim natijasi bo'ldi.

I. Karimov

xizmatlarning xalqaro savdosi, kapital va xorijiy investisiyalar harakati; ishchi kuchi migrasiyasi; ishlab chiqarishning xalqaro kooperasiyasi; fan va texnika sohasida ayriboshlash; valyuta-kredit munosabatlari kabi turli xil shakllarini o'z ichiga oladi.

Xalqaro xo'jalik aloqalarining asosini xalqaro savdo tashkil etadi.

Xalqaro savdo nazariyasi David Rikardo tomonidan XIX asr boshlarida ishlab chiqilgan "taqqoslanma avfzallik" konsepsiyasiga asoslangan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, taqqoslanma afzallik tamoyilidan foydalanishga asoslangan xalqaro ixtisoslashuv va erkin savdo natijasida umumiy tovarlar ishlab chiqarish o'sadi, mamlakatlarning iste'mol darajasi ularning ishlab chiqarish imkoniyatlaridan yuqori darajaga etadi.



Xalqaro aloqalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan O'zbekistonning juda katta yutug'i shundaki, respublika rivojlangan energetika, kommunikasiya, va suv tizimlariga, yagona, bir - birini to'ldiradigan temir yo'l va avtomobil' yo'llari tarmog'iga ega. O'zbekiston xalqaro aviasiya kommunikasiyalarini rivojlantirish jihatidan ham qulay o'rinda joylashgan.

I. Karimov

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatdan himoya qilish maqsadida, hukumat erkin savdo yuliga turli xil to'siqlar o'rnatishi mumkin. Savdo hajmini cheklovchi bunday siyosat, proteksionizm deyiladi. Savdo cheklovlari import tariflari va notarif to'siqlar sifatida namoyon bo'ladi.

Poshlina (boj) – bu import qilinuvchi tovarga hukumat tomonidan o'rnatiluvchi, aksiz solig'idir. Notarif to'siqlar o'z ichiga import kvotalari, lisenziyalar, ixtiyoriy eksport cheklovlarini qamrab oladi. Barcha savdo cheklovlari import tovarlariga ichki narxning o'sishiga va import hajmining qisqarishiga olib keladi. Savdo to'siqlarini oqlash uchun proteksionizm tarafdorlari quyidagi argumentlarni keltiradilar:

- **milliy mudofaani ta'minlash dasturi;**
- **ishchi o'rinlarini saqlab qolish;**
- **yosh tarmoqlarni xorijiy raqobatdan himoya qilish.**

Tarixiy tajriba bu argumentlarni ishonchli tarzda inkor etib kelmoqda. Proteksionistik savdo siyosatini ro'yobga chiqarish xarajat-lari undan olinayotgan foydadan ortiq qiymatni tashkil etadi.

? Asosiy tushunchalar va terminlar:

- a) Eksport.
- b) Import.

- c) Mutloq ustunlik.
 - d) Taqqoslanma afzallik.
 - e) Savdo imkoniyatlari chizig'i.
 - f) Savdo shartlari.
 - g) Proteksionizm.
 - h) Notarif to'siqlar.
 - i) Demping.
 - j) Eksport subsidiyasi.
 - k) Import kvotasi.
1. Biror mahsulotga ixtisoslashuv va shu mahsulotni ayriboshlashda mamlakatda mavjud bo'lgan tanlov variantlarini ko'rsatadi.
 2. Mamlakatning biror bir tovar yoki xizmatni o'z savdo sheriklariga nisbatan past bo'lgan muqobil xarajatlar bilan ishlab chiqara olish qobiliyati.
 3. Bojxona bojlarini istisno qilgan holda, xalqaro savdoni cheklovchi barcha to'siqlar: import kvotalari, maxsus lisenziyalar va h. k.
 4. Hukumat mahalliy ishlab chiqaruvchilar – mahsulot eksportchilarini uning yordamida rag'batlantiruvchi savdo siyosati vositasi.
 5. Boshqa mamlakatlardan tovarlarni olib kirish uchun belgilangan miqdoriy limit (cheklov).
 6. Xorijiy bozorlarda tovarlarni o'z tannarxidan past bo'lgan narxlarda sotish.
 7. Erkin savdo yuliga to'siqlar o'rnatish.
 8. Bir mamlakatning tovar va xizmatlarini ikkinchi bir mamlakat fuqaro va korxonalariga sotish.
 9. Mamlakatning tovar va xizmatlarini boshqa savdo sheriklari bilan takkoslaganda, resurslarni kam xarajat qilish bilan ishlab chiqara olish qobiliyati.
 10. Mamlakatning boshqa mamlakat fuqaro va firmalaridan tovar va xizmatlarni sotib olishi.
 11. Eksport narxlarining import narxlariga nisbati.

To'g'ri – noto'g'ri:

1. Iqtisodiy integrasiya savdoni erkinlashtirish vositasi hisoblanadi.
2. Tashqi savdo faqat boy mamlakatlar uchun foydalidir.
3. Sof eksport YaMMning o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi.
4. Import kvotasi – bu yil davomida import qilishga ruxsat berilgan ma'lum bir tovarning belgilangan miqdori.
5. Bojxona bojlarini oshirishdan maqsad – mamlakat ichki iste'molini o'stirishdir.
6. Importni cheklash mamlakatda samarasiz tarmoqlarning saqlanib qolishiga olib keladi va samarali ishlab chiqarishlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.
7. Import poshlinalarni kiritishdan maqsad – milliy tarmoqlar va ishchi o'rinlarini xorijiy raqobatdan himoya qilish maqsadida, importni qisqartirishdir.

Testlar:

1. Taqqoslanma afzallik tamoyili kim tomonidan ishlab chiqilgan:

- a) D. Rikardo;
- b) A. Smit;
- c) A. Kurno;
- d) K. Marks.

2. Savdo hajmini cheklashga qaratilgan siyosat ... deb ataladi.

3. Proteksionizm tarafdorlari poshlinalar, kvotalar va va boshqa savdo to'siqlari:

- a) Yosh tarmoqlarni xorijiy tarmoqlardan himoya qilish uchun;
- b) Ichki bandlikni oshirish uchun;
- c) Dempingning oldini olish uchun;
- d) Mamlakat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur deb hisoblaydilar;
- e) Barcha javoblar to'g'ri.

4. Moslikni o'rnatish:

1. Ekspansionistik ta'sir

a) Subsidiyalar yordamida eksportni rag'batlantirish..

b) Import poshlinalarining oshirilishi

c) Kvotalash yuli bilan eksportni cheklash.

d) Eksport poshlinalarining oshirilishi.

e) import poshlinalarining pasaytirilishi.

f) Lisenziyalashning joriy etilishi.

2. Cheklovchi tavsifdagi ta'sir.

5. Agrar mamlakat tayyor mahsulotni import qilib, iqtisodiyotning agrar sektori xom ashyo mahsulotlarini eksport qilsa, bu mamlakat qanday mamlakatlar jumlasiga mansub?

- a) Industrial;
- b) Rivojlanayotgan;
- c) Janubiy-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari;
- d) iqtisodiyoti zaif;
- e) Ushbu belgi, mamlakat rivojlanish darajasini tavsiflamaydi.

? Mashq va masalalar:

1. Taqqoslanma afzallik tamoyilidan foydalangan holda, keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi savollarga javob bering:

Ishlab chiqaruvchi	Gazlama ishlab chiqarish (xarajatlar birligi)	qand ishlab chiqarish (xarajat birligiga)
A mamlakat	100	300
qolgan dunyo	200	400

- (a) Gazlama va qand ishlab chiqarishda A mamlakat mutloq va taqqoslanma ustunlikka egami?
- (b) A mamlakat uchun qolgan dunyo bilan qanday tovar va qanday narxlar nisbati asosida savdoni amalga oshirish foydali?

Bu holatda xarajatlarning o'zgarmasligi, faqatgina ikkita tovar mavjudligi, hamda bozorlarning raqobatlilikini e'tiborga oling.

2. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasini erkinlashtirish borasidagi amalga oshirilayotgan islohotlarni qisqacha bayon qilib bering.
3. O'zbekistonning ayni paytdagi eksport va import tarkibini tahlil qiling va xulosa tayyorlang.
4. Respublikamiz iqtisodiyoti ochiqlik kasb etayotgan bir paytda, yuqoridagi rasmlar asosida taqqoslanma avfzallik tamoyilining amalda namoyon bo'lishini tushuntirib bering.





IQTISODIY ATAMA VA TUSHUNCHALAR



A

Avuar - to'lovlarni amalga oshirish mumkin bo'lgan, bankning xorij banklarida mavjud bo'lgan pul mablag'lari.

Agrosanoat majmui - qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va unga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar majmuidan iborat bo'lgan, iqtisodiyotning alohida sohasi.

Agrar munosabatlar - qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonida erdan foydalanish yuzasidan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlar.

Akselerator - kapital qo'yilmalarining hajmi ishlab chiqarish hajmlari o'zgarishiga bog'liq bo'lgan, iqtisodiyot modeli.

Aktiv - korxona mulkining pul mablag'lari ko'rinishidagi ifodasi.

Aksiz - tovar narxiga ustama sifatida iste'mol tovarlariga belgilanuvchi egri soliqlarning bir ko'rinishi.

Antiinflyasion siyosat - davlatning inflyasiya sur'atlarini pasaytirishga qaratilgan chora - tadbirlari va vositalari majmui.

Amortizasiya - asosiy fondlar qiymatini, ular vositasida ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlar tannarxiga asta - sekinlik bilan o'tkazish, hamda eskirgan asosiy fondlarning o'rnini keyinchalik qoplash maqsadida pul mablag'larini jamg'arish.

An'anaviy iqtisodiyot - iqtisodiy faoliyatni jamiyatda mavjud an'analar, udumlar asosida tashkil etishga asoslangan iqtisodiy tizim.

Aralash iqtisodiyot - mulkchilikning barcha shakllari teng huquqliligi va bozor, an'anaviy, rejali iqtisodiy tizimlarning ma'lum bir tamoyillari asosida rivojlanuvchi iqtisodiy tizim.



B

Balans - u yoki bu iqtisodiy jarayonlarning ma'lum bir tomonlarini taqqoslash yo'li bilan tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi; daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq.

Bazis qiymat - boshqa ko'rsatkichlar o'lchamlarini aniqlashda asos sifatida foydalaniluvchi qiymat.

Bank - vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jamlash va ushbu asosda pul mablag'lariga ehtiyoj sezuvchilarga kredit berish va shu kabi pul mablag'lari harakati bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi moliya - kredit muassasasi.

Barter - pul vositasiz, tovarni tovarga to'g'ridan - to'g'ri ayribosh-lash jarayoni.

Biznes - foyda olishga qaratilgan har qanday iqtisodiy faoliyat.

Birja - doimiy asosda faoliyat yurituvchi va ma'lum bir namunadagi tovarlar savdosi tashkil etiluvchi bozorning bir ko'rinishi.

Bozor - tovar va xizmatlarni ayriboshlash yuzasidan sotuvchi va xaridor o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar yig'indisi.

Bozor infratuzilmasi - bozorning samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi va unga xizmat ko'rsatuvchi soha va tarmoqlar majmui.

Byudjet - pul daromadlarining shakllanish manbalari va sarflash kanallarini aks ettiruvchi hujjat.

Byudjet kamomadi - byudjet xarajatlarining daromadlardan ortiqcha bo'lishi.

Byudjet profisiti - byudjet daromadlarining rejalashtirilgan byudjet xarajatlardan ortiqcha bo'lishi.



Valyuta - mamlakatning muomalada mavjud bo'lgan milliy pul birligi.

Valyuta intervensiyasi - valyuta kursini tartibga solish maqsadida markaziy bank tomonidan xorijiy valyutani sotish yoki sotib olish.

Valyuta kursi - bir mamlakat pul birligining ikkinchi bir mamlakat pul birligida ifodalangan narxi.

Veksel' - muayyan miqdordagi pulni qarzga olganligi va uni qancha muddatda qaytarib berishligi haqida shu davlatda amal qiluvchi qonun talablariga qat'iy rioya qilgan holda aniq shaklda maxsus yozib berilgan va rasmiylashtirilgan qarzdorlik hujjati.

Venchur korxonalar - fanning salmog'i yuqori bo'lgan, ishlab chiqarish jarayoniga fan va texnika yangiliklarini birinchilardan bo'lib tavakkal asosida joriy etish va shu asosda yuqori foyda olishni maqsad qilib qo'yuvchi kichik korxonalar.

Venchur kapital - tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan kapital qo'yilmalarini moliyalashtirishda foydalanilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari.

Vertikal birlashma - tayyor mahsulot ishlab chiqarishning turli bosqichlarini amalga oshiruvchi korxonalarning birlashish shakli.

Valyuta - oltin zahiralari - markaziy bank tomonidan xalqaro hisob - kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish, milliy valyutaning ichki va tashqi ayriboshlanishini ta'minlash maqsadida jamg'ariladigan xorijiy valyuta va oltin zahiralari.

Valyuta bozorlari - turli mamlakatlarning milliy valyutalari sotiluvchi va sotib olinuvchi bozor.

Valyuta paretiteti - ikki valyuta o'rtasida valyuta kurslarini hisoblash maqsadida qo'llaniluvchi nisbat.



Giperinflyasiya - muomaladagi pul massasi va narxlar darajasi o'sishining nazorat doirasidan chiqib ketishini ifoda etuvchi inflyasiya turi. Giperinflyasiya davrida narxlar darajasining yillik o'sish sur'atlari yiliga 1000 % dan oshib ketadi.

Garov - savdo va tijorat ishlarini amalga oshirish hamda banklardan naqd pul bilan kredit olish vaqtida ko'char yoki ko'chmas mulkni vaqtinchalik qarz beruvchi ixtiyoriga berish.

Gorizontall qo'shilish - bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki ishlab chiqarishning bir xil bosqichini amalga oshiruvchi korxonalarning Yagona korxonaga birlashishi yoki bitta korxona nazoratiga o'tishi.

Gipoteza - ilmiy bilimlar rivoji va ularning kelib chiqishini asoslash maqsadida ilgari suriluvchi ilmiy farazlar.



Davlat mulki - mulkdor sifatida davlat muassasalari ishtirok etuvchi mulk shakli.

Davlat tadbirkorligi - tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish maqsadida davlat korxonalarining tijorat va notijorat asosidagi faoliyati.

Davlat sektori - milliy iqtisodiyotning davlat mulki bo'lgan yoki butunicha davlat tomonidan nazorat qilinuvchi sohasi.

Davlat qarzi - davlatning aholi, korxona va tashkilotlardan va xorijiy mamlakatlardan bo'lgan qarzi. Davlat qarzi ichki va tashqi qarzlarga bo'linadi.

Davlatning byudjet - fiskal siyosati - davlatning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida byudjet xarajatlari va soliqlarni boshqarishga qaratilgan siyosati.

Deval'vasiya - valyuta kursining rasmiy tarzda pasaytirilishi.

Deflyasiya - inflyasiyaga teskari bo'lgan jarayon, milliy iqtisodiyot miqyosida o'rtacha narxlar darajasining ish faolligining susayishi natijasida pasayishi.

Diversifikasiya - bir vaqtning o'zida korxona tomonidan bir biriga bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarishlarning tashkil etilishi va rivoj-lantirilishi.

Diler - o'z hisobidan va o'z foydasini ko'zlab birja savdolarida vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs yoki firma.

Depozitariy - depozit va qimmatli qog'ozlarni saqlash va ularning hisobini yuritish bilan shug'ullanuvchi huquqiy shaxs.

Doimiy xarajatlar - mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish hajmi bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar.



Evro - Evropa ittifoqi mamlakatlari (Avstriya, Bel'giya, Germaniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlandiya, Fransiya, Gresiya) ning yagona pul birligi.

Evropa Ittifoqi - o'z tarkibiga 15 ta evropa mamlakatini bir-lashtiruvchi o'ziga xos xalqaro institut. Ushbu xalqaro institut evropa mamlakatlari hududida yagona bozor vujudga keltirish va shu orqali iqtisodiy farovonlikka erishish maqsadida tashkil etilgan.

Er rentasi - erga ishlov berish natijasida erning tabiiy va iqtisodiy hosildorligiga bog'liq tarzda olinuvchi qo'shimcha daromad.



Jamg'arma - iste'mol sarflari amalga oshirilib, turli xil to'lovlar, soliqlar to'langandan so'ng, daromadning qolgan qismi. Jamg'arma iste'mol darajasini kelgusida ham bir maromda saqlab turish maqsadida tashkil etiladi.

Jamg'arishga chegaraviy moyillik - daromadlar hajmi o'lchamlari o'zgarishiga bog'liq holda jamg'armalar hajmining o'zgarishini ifoda etadi.

Jadallashtirilgan amortizasiya - ishlab chiqarishning texnik darajasini talab darajasida ushlab turish va ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni tezkor joriy etish maqsadida korxona tomonidan qo'llaniluvchi amortizasiya hisoblash usuli.

Jahon bozori - xalqaro mehnat taqsimoti, taqqoslanma avfzallik tamoyillari asosida jahon mamlakatlari o'rtasida vujudga keluvchi barqaror oldi - sotdi munosabatlari.

Jahonshumul muammolar - umumbashariyat uchun birdek muhim bo'lgan va ularning echimi barcha tinchlikparvar kuchlarning o'zaro birlashuvini taqozo etuvchi urush va tinchlik, qurolsizlanish, ekologik muammolar kabi muammolar.



Zakot - islom dinining besh asosiy ustunlaridan biri. Unga ko'ra har bir musulmon yillik daromadining qirqdan bir ulushini zakot sifatida berishi lozim.

Zakot - mol - mulkdan ixtiyoriy ravishda beriladigan xayr- ehson.

Zarar - korxona daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi manfiy tafovut, ya'ni, korxona xarajatlarining daromadlaridan ortiqcha bo'lishi.

Zararsizlik nuqtasi - umumiy xarajatlarning umumiy daromadlarga teng bo'lgan, yoki o'rtacha xarajatlar mahsulot narxiga teng bo'lgan holat. Raqobatli bozor sharoitida korxona uchun zararsizlik nuqtasini e'tiborga olish muhimdir, chunki yuqori xarajatlar korxonaga daromad olish imkonini bermaydi.



Investisiya - ma'lum bir qaytinga ega bo'lish maqsadida ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar.

Inson kapitali - insonlar tomonidan o'z umrlari davomida to'plangan bilim, ko'nikma, sog'liq va hayotiy tajriba.

Izokvanta - ma'lum bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishda foydalanilishi mumkin bo'lgan omillar kombinasiyasini aks ettiruvchi egri chiziq.

Import - mamlakat ichki iste'mol bozorlarida sotish uchun xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mamlakat ichki bozorlariga tovar va xizmatlarning olib kirilishi.

Indeksasiya - inflyasiya sur'atlarini hisobga olgan holda to'lovlar miqdorini o'zgartirish.

Injiniring - muhandislik- qurilish, loyihalash xizmatlarini ko'rsatish.

Inflyasiya - umumiy miqyosda narxlarning o'sishi sifatida namoyon bo'luvchi yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatning buzilishi.

Ipoteka - kredit olish maqsadida er yoki boshqa ko'chmas mulk ob'ektlarini garovga qo'yish.

Ishlab chiqarish xarajatlari - ma'lum bir mahsulot yoki xizmat turini ishlab chiqarishga korxona tomonidan sarflangan moddiy sarflar. Doimiy, o'zgaruvchan va yalpi xarajatlar farqlanadi.

InnovasiYa - korxona tomonidan ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usul va vositalaridan tijorat asosida keng foydalanish.

Intensiv iqtisodiy o'sish - resurlardan foydalanish samaradorligini oshirishga asoslangan iqtisodiy o'sish.

Iste'mol savati - kishilarning me'yoriy hayot kechirish faoliyatini ta'minlash uchun zarur hisoblangan oziq - ovqat va sanoat tovarlarining yig'indisini ifodalovchi tushuncha.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i - iqtisodiyotda to'la bandlik va ishlab chiqarishning boshqa omillaridan to'la foydalanilgan sharoitda ikkita mahsulotni ishlab chiqarishning har xil kombinasiyalarini ko'rsatuvchi egri chiziq.

Ishchi kuchi - insonning jismoniy va aqliy qobiliyatlari yig'indisi va mehnat qilishga layoqati bo'lib, har qanday jamiyat ishlab chiqarish-ining asosiy sharti hisoblanadi. Aholining jismoniy va aqliy mehnatga layoqatli qismi ishchi kuchini tashkil etadi.



Kapital - tovar va xizmatlarni yaratish jarayonida foydalaniluvchi ishlab chiqarish vositalari va daromad keltirishi mumkin bo'lgan har qanday resurs.

Kartel' - korxonalar o'rtasida mahsulot narxi, uni sotish hajmlari, sotish bozorlari to'g'risida kelishib olishni ifoda etuvchi monopo-liyaning bir ko'rinishi.

Kvota - qonunchilik yoki o'zaro kelishuvlar asosida belgilanadigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki sotishdagi korxonaning ulushi.

Kredit - muddatlilik, foizlilik, qaytarib berishlik shartlari asosida qarz oluvchi va qarz beruvchi o'rtasida vujudga keluvchi qarz munosabatlari.

Konsorsium - muayyan iqtisodiy loyihalarni yoki moliyaviy operatsiyalarni birgalikda amalga oshirish maqsadida banklar va sanoat kompaniyalari o'rtasida tuzilgan muvaqqat bitim.

Konsignasiya - mahsulotlarni vositachilar ombori orqali sotish shakli. Bunda etkazib beruvchi vositachi omboriga kelib tushgan molga egalik qilish huquqini mol xaridorga sotilgan paytga qadar saqlab qoladi.

Konsalting - korxona iqtisodiy faoliyatini tashkil etishning barcha jabhalari bo'yicha yo'l- yo'riq va maslahatlar berish.

Korxona - amaldagi qonunchilik doirasida foyda olishni maqsad qilib qo'ygan holda faoliyat yurituvchi xo'jalik yuritish shakli. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq ishlovchilar sonidan kelib chiqqan holda mikrofirma, kichik korxona, o'rta korxona, katta korxonalar farqlanadi.

Kon'yunktura (iqtisodiy) - mamlakat iqtisodiyotida yoki jahon xo'jaligida ma'lum vaqt mobaynida tarkib topgan iqtisodiy vaziyat. Iqtisodiy kon'yunktura vaqtinchalik tavsifga ega bo'ladi.

Ko'p ukkladli iqtisodiyot - mulkchilikning xilma - xil shakllari asosida rivojlanuvchi milliy iqtisodiyot.



Likvidlik - aktivlarning tezda ortiqcha chiqimlarsiz pul mablag'lariga aylana olish qobiliyati.

Lizing - asosiy fondlarni uzoq muddatli ijaraga berish. Lizing kompaniyalari asbob - uskuna va mashinalarni ularni keyinchalik ijaraga berish maqsadida sotib oladilar.

Lisenziya - ma'lum bir iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun davlat yoki uning vakolatli muassasalari tomonidan beriluvchi ruxsatnoma.

Laffer egri chizig'i - soliqlar stavkasining o'sib borishi bilan byudjet daromadlari ko'payish tomonga emas, aksincha ish faolligining pasayishi hisobiga qisqarish tomonga harakatlanishini ko'rsatib beruvchi qonuniyat.

Logistika - tovar- moddiy qimmatlilarni sotish, saqlash, tashish va ishlab chiqarishning kompleks tizimi.



Makroiqtisodiy siyosat - milliy iqtisodiyot miqyosidagi mavjud muammolarni hal etishga yo'naltirilgan davlatning iqtisodiy siyosati.

Marjinalizm - iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda chegaraviy miqdorlardan foydalanishga asoslangan iqtisodiy yo'nalish.

Model - iqtisodiy jarayon va hodisalarning soddalashtirilgan ko'rinishda matematik apparat yordamida aks ettirilishi.

Makroiqtisodiyot - milliy iqtisodiyotni yaxlit iqtisodiy tizim sifatida tahlil etuvchi iqtisodiyot nazariyasining bir bo'limi.

Mikroiqtisodiyot - bozor jarayonlari tahlil etiluvchi iqtisodiyot fanining bir bo'limi.

Marketing - korxona tomonidan sotish hajmlarini oshirish va yangi sotish bozorlarini izlab topish maqsadida amalga oshiriluvchi bozorni o'rganishga qaratilgan faoliyat.

Menedjment - ishlab chiqarishni tashkil etish va zamonaviy boshqaruv usullari haqidagi iqtisodiyot fanining bir bo'limi.

Mehnat bozori - ishchi kuchi oldi- sotdisi yuzasidan ish beruvchi va ishchi kuchini taklif etuvchilar o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar.

Monetarizm - makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda pul muomalasiga asosiy e'tiborni qaratuvchi iqtisodiy yo'nalish.

Makroiqtisodiy siyosat - davlatning iqtisodiyotga aralashish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni maqsad qilib qo'ygan holda amalga oshiruvchi iqtisodiy chora tadbirlari majmui.

Mul'tiplikator samarasi - iqtisodiy o'sishning investisiyalar hajmiga bog'liqligini ko'rsatadi. Unga ko'ra iqtisodiyotga yo'naltirilgan investisiyalar o'zining hajmidan bir necha marotaba ko'p bo'lgan holda milliy daromadning o'sishini ta'min etadi.



Narx - tovar qiymatining pul birliklarida ifodalanishi.

Navflilik - iqtisodiy ne'matlarning ehtiyojlarni qondira olish qobiliyati.

Nominal daromad - ma'lum bir davr mobaynida narxlarning joriy davrdagi o'sish sur'atlarini hisobga olmasdan hisoblangan daromad.

Nominal YaMM - joriy davr narxlarida hisoblangan YaMM qiymati.

Normal tovarlar - iste'molchilarning daromadlari o'sib borishi bilan talab hajmi o'sib boruvchi tovarlar.

Notarif to'siqlar - mamlakatga chetdan mahsulotlar olib kelishni cheklash maqsadida qo'llaniluvchi ma'muriy chora- tadbirlar.

Nou - xau - ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulotlarni sotish uchun zarur bo'lgan ilmiy - texnik, iqtisodiy bilimlar va xo'jalik yuritish tajribalari umumiyligi. Hozirgi kunda **nou- xaular** tijorat bitimlarining asosiy ob'ektiga aylanib bormoqda.



OPEK - neftni qazib olish, eksport qilish va unga narx belgilash sohasida Yagona siyosat o'tkazish maqsadida neft eksport qiluvchi mamlakatlar tomonidan tashkil etilgan tashkilot.

Ochiq bozorlarda operasiyalar o'tkazish - davlatning pul - kredit tizimiga ta'sir qilish maqsadida markaziy bank tomonidan ochiq bozorlarda davlat qimmatbaho qog'ozlarini sotish yoki sotib olish.

Ochiq iqtisodiy tizim - xorijiy mamlakatlar bilan eksport - import va moliyaviy operasiyalar mexanizmi orqali o'zaro bog'langan iqtisodiy tizim.

Oligopoliya - bozorda tabaqalashgan yoki standart mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchi atigi bir nechta korxonalarning ustivor mavqega ega bo'lishi.

Obligasiya - davlat yoki hissadorlik jamiyati tomonidan pul mablag'larini tezda jalb qilish maqsadida muomalaga chiqarilgan qarzli qimmatli qog'oz. Obligasiya uchun tavakkalchilik darajasining pastligi, muddatlilik va qat'iy foizlarda daromad olib turish xosdir.

Ouken qonuni - iqtisodiy faollik va ishsizlik darajasining o'sishi o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni ifoda etadi. Ouken qonuniga ko'ra ishsizlik darajasining o'z tabiiy darajasidan 1% ortiq bo'lishi YaMMning o'z potensial hajmidan 2.5 % ortda qolishiga olib keladi.



Pozitiv iqtisodiyot - ob'ektiv iqtisodiy voqelikni tahlil etishga asoslangan iqtisodiyot.

Pul - barcha tovar va xizmatlarga ayriboshlana olish xususiyatiga ega bo'lgan umumiy ekvivalent tovar. Pul qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi, jamg'arish vositasi, jahon puli vazifalarini bajaradi. Tovlar pullar, ramziy pullar, elektron pullar farqlanadi.

Patent - ixtirochilik huquqini tasdiqlovchi va unga yoki patentni sotib olgan shaxsga ixtirodan tanho o'zi foydalanish huquqini beruvchi hujjat.

Progressiv soliq - daromadning o'sib borishi bilan soliq miqdorining ham o'sib borishiga asoslangan, soliq.

Proteksionizm - milliy iqtisodiyotni xorijiy ishlab chiqaruvchilar tazyiqidan himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati. Prteksionizm birinchi navbatda xorijiy tovarlarni mamlakatga olib kirishni to'g'ridan - to'g'ri yoki egri yo'llar bilan cheklashda ifodalanadi.

Pul - kredit siyosati - pul muomalasini tartibga solish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosati. Pul - kredit siyosati quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi:

- **ochiq bozorlarda operasiyalar o'tkazish;**
- **majburiy zahiralarini o'zgartirish;**
- **hisob stavkalarini o'zgartirishga asoslangan diskont siyosati.**

Pul massasi - iqtisodiyotda mavjud bo'lgan umum qabul qilingan to'lov vositalarining umumiyligi.

Pul tizimi - tarixan tarkib topgan, qonunchilik asosida mustahkam-langan pul muomalasini tashkil etish tizimi.



R

Rant'e - qimmatli qog'ozlardan olinuvchi daromadlar va foizlar hisobiga hayot kechiruvchi shaxs.

Raqobat - ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida bozorda ustun mavqega ega bo'lish, yuqori foyda olish maqsadida olib boriluvchi iqtisodiy kurash. Raqobat bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Renovasiya - jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan ishlab chiqarish fondlarini Yangilash jarayoni.

Real YaMM - YaMMning inflyasiya sur'atlarini hisobga olgan holda hisoblangan puldagi qiymati.

Reval'vasiya - mamlakat milliy pul birligining kursini boshqa mamlakatlar milliy valyutalari kursiga nisbatan rasman ko'tarish.

Reklama - ma'lum bir mahsulot yoki xizmatni sotishni rag'batlantirish maqsadida korxonalar tomonidan muta qil yoki reklama xizmatlarini taklif etuvchi korxonalar tomonidan amalga oshiriluvchi tijorat - targ'ibot faoliyati.

Restitusiya - Harbiy harakatlar natijasida bosib olingan va tashib chiqib ketilgan mulklarni qaytarib berish.

Real foiz stavkasi - inflyasiya sur'atlariga qarab to'g'rilangan joriy (nominal) foiz stavkasi.



S

Savdo foydasi - tovarlarni iste'molchiga etkazishda sotib olish narxi bilan sotish narxi o'rtasidagi farq sifatida olinadigan foyda. Savdo foydasi ishlab chiqarish foydasining bir qismini tashkil etadi.

Sanasiya - raqobatbardoshlikni oshirish, bankrotlik xavfini bartaraf etish maqsadida korxona moliyaviy holatini Yaxshilash bo'yicha amalga oshiriluvchi chora - tadbirlar.

Sen'oraj - pulni muomalaga kiritish jarayonida, pulning nominal qiymati va uni bosib chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida davlat tomonidan olinuvchi daromad.

Stagnasiya - u yoki bu tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi.

Stagflyasiya - bir paytning o'zida yuqori inflyasiya sur'atlari bilan ishsizlik darajasi o'sishining kuzatilishi.

Subvensiya - moliyaviy jihatdan nochor korxonalarga ko'rsatiluvchi moliyaviy yordam shakli.

Sug'urta polisi - sug'urta shartnomasi va uning shartlarini tasdiqlovchi sug'urtachi tomonidan sug'urtalanuvchiga beriluvchi hujjat.

Sug'urta tavakkalchiligi - zarar yoki yo'qotishlar xavfining vujudga kelishi.

Sug'urta holati - yuz berishi bilan sug'urtachi sug'urtalanuvchiga sug'urta summasi yoki sug'urta tovonini to'lashi lozim bo'lgan hodisa.

Soliq deklarasiyasi - soliq to'lovchining muayyan davr mobaynida topgan daromadlari miqdori va manbalarini ko'rsatuvchi hujjat. Rivojlangan iqtisodiy munosabatlar sharoitida soliq deklarasiyasi soliq tizimining muhim tashkil etuvchisiga aylanib boradi.



Tadbirkor - foyda olish maqsadida tavakkalchilikka asoslanib, qonunchilik doirasida har qanday iqtisodiy faoliyat yurituvchi shaxs.

Talab - iste'molchilarning ma'lum bir mahsulot va xizmatlarni ma'lum bir narxlar asosida sotib olishga bo'lgan iqtisodiy imkoniyatlari. Talab - ehtiyojning pul bilan ta'minlangan qismidir.

Talab qonuni - talab hajmi va narxlar darajasi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi iqtisodiy qonuniyat.

Taklif - ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilarning bozorga ma'lum tovar va xizmatlarni ma'lum narxlar asosida sotishga olib chiqish imkoniyatlari.

Taklif qonuni - taklif hajmi va narxlar darajasi o'rtasidagi to'g'ri bog'liqlikni aks ettiruvchi iqtisodiy qonuniyat. Talab va taklif qonunlari bozor iqtisodiyotining muhim qonunlari hisoblanadi.

Talab narxi - xaridorlar tovar va xizmatlar uchun to'lashlari mumkin bo'lgan eng yuqori narx.

Taklif narxi - tovar va xizmatlarni sotishda sotuvchilar tomonidan taklif etiluvchi eng past narx. Taklif narxining yuqori bo'lishi sotishdan tushgan pul tushumlarining yuqori bo'lishini ta'min etadi.

Tuzilmaviy siyosat - iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasini o'zgartirishga qaratilgan davlatning iqtisodiy siyosati.

Tovar - o'zining almashuv va iste'mol qiymatiga ega bo'lgan va bozor orqali ayriboshlanadigan, yakuniy iste'mol uchun mo'ljallangan mahsulot.

To'la bandlik - milliy iqtisodiyotda mavjud mehnat resurslarining iqtisodiyot sohalarida to'la band bo'lishi.

To'lov balansi - mamlakatning ma'lum davr mobaynida tashqi dunyo mamlakatlari bilan amalga oshirgan iqtisodiy aloqalari natijalarini aks ettiruvchi balans ko'rinishidagi hujjat.

Tezavrasiya - aholi tomonidan inflyasiya sharoitida pullarning qadrsizlanishidan sug'urtalanish maqsadida oltin va qimmatbaho zargarlik buyumlarining jamg'arilishi.



Ulgurji narx - tovar va xizmatlarni ko'tarasiga savdo qilishda qo'llaniluvchi narx turi. Ulgurji narx ishlab chiqarish sarflari va savdo ustamasini o'z ichiga oladi.

Umumiy xarajatlar - korxona tomonidan ma'lum bir tovar yoki xizmatlarni yaratish uchun sarflangan jami moddiy sarflarning pul qiymati.

Ustav fondi (nizom jamg'armasi) - korxonaning boshlang'ich faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari fondi.



Firma - bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy agenti hisoblanuvchi, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi mustaqil huquqiy shaxs.

Fiskal siyosat - iqtisodiyotga ta'sir etish maqsadida davlat xarajatlari tuzilmasini o'zgartirish va soliqqa tortish sohasidagi davlat siyosati.

Friksion ishsizlik - mehnat bozoridagi tabiiy jarayonlar bilan bog'liq holda vujudga keluvchi ishsizlik ko'rinishi.

Fors - major - bitimda ishtirok etuvchi tomonlarning xohishlariga bog'liq bo'lmagan holda, bitim majburiyatlarining bajarilmasligiga olib keluvchi, oldindan aytish mumkin bo'lmagan hodisa va jarayonlarning yuz berishi.

F'yuchers bozorlari - f'yuchers bitimlarini tuzish va amalga oshirish maqsadida tashkil etiluvchi bozor shakli.

Filips egri chizig'i - ingliz iqtisodchisi A. V. Filips nomi bilan bog'liq bo'lgan, ishsizlik darajasi va narxlarning umumiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi egri chiziq. U qisqa muddatli davrlarda ishsizlik va inflyasiya o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish imkonini beradi.

Franchayzing - yirik korxonaning boshqa bir korxonaga o'z savdo tarmoqlari va savdo belgilaridan, nou - xaularidan foydalanishga ruxsat berish haqidagi kelishuvi. Bu holda ikkinchi korxona savdo tushumlarining ma'lum bir qismini franchayzing taqdim etuvchiga o'tkazadi.

Franshiza - franchayzing asosida ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish huquqi.



Xalqaro iqtisodiy aloqalar - xalqaro mehnat taqsimoti va nisbiy avfzallik tamoyillari asosida turli milliy iqtisodiyotlar o'rtasida amalga oshiriluvchi xo'jalik aloqalari tizimi.

Xolding - boshqa korxonalarning nazorat aksiya paketlariga ega va pirovardida ushbu korxonalar ustidan nazorat qilish imkoniga ega bo'lgan kompaniya.

Xususiylashtirish - davlat mulkini sotish yoki qonun doirasida ko'zda tutilgan boshqa shakllar asosida xususiy mulkchilik shakllariga o'tkazish jarayoni.

Xarajatlari o'suvchi tarmoq - ishlab chiqarishning kengaytirilishi natijasida iste'mol qilinayotgan resurslarga narxlarning o'sishiga olib keluvchi tarmoq.

Xarajatlari pasyib boruvchi tarmoq - ishlab chiqarishning kengaytirilishi natijasida iste'mol qilinayotgan resurslar narxi pasayib boruvchi tarmoq.

Xedjirlash - f'yuchers bitimlarining amalda bo'lish jarayonida narxlarning noqulay o'zgarishidan himoyalaniish maqsadida qo'llaniluvchi sug'urta operatsiyalari.



CH

Chek - maxsus pul hujjati. Chek beruvchining joriy hisobidan muayyan summani berish yoki boshqa hisobga o'tkazish to'g'risidagi Yozma farmoyishi.

Chekli qo'yilmalar - chek yozib berish mumkin bo'lgan tijorat banklari va jamg'arma muassasalaridagi omonatlar.

Cheksiz qo'yilmalar - chek yozib berish mumkin bo'lmagan jamg'arma hisob raqamlari.

Charter - kema egasi va uni fraxtga oluvchi o'rtasida kemani yoki uning bir qismini ijaraga olish to'g'risidagi shartnoma.

Chakana narx - chakana savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlari orqali iste'molchilarga tovar va xizmatlarni sotishda qo'llaniluvchi narx turi.



SH

Shartnoma - shartlashuvchi tomonlarning majburiyatlarini aks ettiruvchi huquqiy tavsifga ega bo'lgan hujjat.

Shaxsiy daromad - soliqlar to'langanga qadar uy xo'jaliklari tasarrufida bo'lgan daromad.

Shok terapiyasi - iqtisodiy islohotlarni o'tkazishga radikal Yondashuv bo'lib, birdaniga narxlarni erkinlashtirish, kichik va o'rta korxonalarni xususiylashtirish va shu kabilarni ifoda etadi.



E

Embargo - biror - bir mamlakat bilan savdo aloqalarini butunlay ta'qiqlash yoki mamlakatga u yoki bu tovarlarni olib kirish va olib chiqishni cheklash.

Emissiya - pul yoki qimmatli qog'ozlarni tayyorlash va muomalaga chiqarish.

Eksport - tovar va xizmatlarni sotish maqsadida xorijiy davlatlar bozoriga chiqarish.

Emitent - qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaruvchi huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona yoki tashkilot.

Ekstensiv iqtisodiy o'sish - ishlab chiqarishning dastlabki texnikaviy holati saqlanib qolgan holda, ishlab chiqarishda foydalanilayotgan resurslar miqdorini oshirish hisobiga ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlar hajmining o'sishi.

Ekologiya - tabiat va jamiyat o'zaro ta'sirining umumiy qonuniyat-larini o'rganuvchi fan.

Engel' qonuni - oilaning daromadi ko'paygani sari uning eng zarur tovarlarga sarflaydigan ulushi kamayib, ayni vaqtda zeb - ziynat buyumlariga qilinadigan sarflar ulushi o'sib boradi.

Erkin bozor - mukammal raqobat qonunlari amal qiladigan, davlat aralashuvi minimal holatga keltirilgan bozor.

Erkin savdo - savdo - sotiqda hech qanday cheklovlarning mavjud emasligi.



Yu

Yunktad - Birlashgan millatlar tashkilotining savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi. Uning asosiy vazifasi xalqaro savdoning rivojlanishiga ko'mak berishdan iborat.

YuNESKO - BMTning fan, maorif, madaniyat masalalari bo'yicha ixtisoslashgan tashkiloti. Ushbu tashkilotning maqsadi ta'lim, madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikni qo'llab quvvatlashdan iboratdir.



Ya

Yalpi Milliy Mahsulot - Milliy iqtisodiyot o'lchamlarini o'lchashda foydalaniluvchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, odatda bir yil mobaynida mamlakat miqyosida yaratilgan yakuniy tovar va xizmatlarning puldagi qiymatini ifoda etadi.

Yalpi Ichki Mahsulot - ma'lum muddat, odatda bir yil mobaynida, mamlakat rezidentlari tomonidan yaratilgan yakuniy tovar va xizmatlarning puldagi qiymatini ifoda etadi.

Yalpi Milliy Mahsulot deflyatori - nominal YaMMning real YaMMga nisbati sifatida aniqlanuvchi va narxlar darajasining o'sish sur'atlarini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

Yashirin iqtisodiyot - davlat ro'yxatidan o'tmasdan turib qonuniy yoki noqonuniy iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining kuchliligi, soliq to'lovlarining yuqoriligi yashirin iqtisodiyot ko'lamlarining kengayishiga olib keladi.



O'

O'rin bosar tovarlar - bir xil iste'molni qondirishda foydalanilishi mumkin bo'lgan tovarlar.

O'zaro bir - birini to'ldiruvchi tovarlar - birining iste'moli ikkinchi-sining iste'molisiz mumkin bo'lmagan tovarlar.

O'zgaruvchan xarajatlar - korxona ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarishi bilan o'zgarib boruvchi xarajatlar. Bunday xarajatlar tarkibiga xom - ashyo va materiallar sarfini kiritish mumkin.

O'rin almashtirish samarasi - iste'molchining tovarlar narxi o'sgan sharoitda, xuddi shunday iste'molni qondira olishi mumkin bo'lgan boshqa arzon tovarni sotib olishga intilishi.



Qiymat - tovarni yaratish uchun sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat sarfi.

Qimmat pullar siyosati - muomaladagi pul miqdorini cheklashga qaratilgan, mamlakat markaziy banki tomonidan amalga oshiriluvchi pul- kredit siyosatining bir ko'rinishi. Foiz stavkalari va majburiy zahiralar me'yorining oshirilishi natijasida kredit olish qimmatlashadi va shu orqali muomaladagi pul miqdorining qisqarishiga erishiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori - qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligasiya va hokazolar) ning muomalada bo'lish sohasi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston" 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T.: "O'zbekiston" 2003.
3. Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T.: "Mehnat" 1997.
4. Avt. jamoasi. Menejment va biznes asoslari. T.: "Mehnat" 1997.
5. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T.: "O'zbekiston" 1999.
6. Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti va sosiologinasi. T.: "Mehnat" 2002.
7. Авт. колл. Экономическая теория. Т.: "Шарк" 1999.
8. Qodirov A., Tursunov A., Turg'unov U. Iqtisodiyot nazariyasi. T.: TDTU 1997.
9. Hakimova M, Xo'jaev X, Mahmudov B. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: "O'qituvchi" 1997.
10. Практикум. Микро и макроэкономика. под ред. Огибина. Бишкек. 1997.
11. Майкл Р. Байе. Управленческая экономика и стратегия бизнес. пер. с англ. М., «ЮНИТИ» 1999 г.
12. Салимов Б. ва бош=алар Микрои=тисодиёт, дарслик, Т., «Шар=» 2001 й.

WEB manbalar va Internet saytlari

1. "Iqtisodiy axborotnoma" jurnalining electron talqini

<http://www.reviev.uz>

Jurnal boshqaruv, iqtisodiyot, marketing sohalari jahon tajribasi va hozirgi davr rivojlanish sur'atlarini yoritadi. Jurnalda davlatning iqtisodiy siyosati, mavjud iqtisodiy vaziyat, iqtisodiyot sohalari bo'yicha rivojlanish tendensiyalari, texnologiyalar kabi mavzular bo'yicha ilmiy va tahliliy maqolalar bilan tanishish mumkin.

2. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi sayti

<http://www.cer.uz>

Iqtisodiy tadqiqotlar markazi mamlakatimizda mustaqil faoliyat olib boruvchi ilmiy maqomga ega bo'lgan muassasa hisoblanib, uning xodimlari tomonidan jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy hayotining barcha sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Mazkur ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan sayt orqali tanishish mumkin.

3. Markaziy Osiyo taraqqiyot portali

<http://www.cagateway.org> – markazning asosiy manzili

<http://forum.cagateway.org> – markazning forumi

<http://experts.cagateway.org> – ekspert va maslahatchilar ma'lumot bazasi
<http://calendar.cagateway.org> – mintaqa yangiliklari.

Sayt asosan Markaziy Osiyo mintaqasida kechayotgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarga bag'ishlangan.

4. Resources for economists on the Internet

<http://rfe.wustl.edu/EconFAQ.html>

Amerika iqtisodiyot assosiasiyasi tomonidan ta'minlanuvchi internet – resurslar katalogi. Iqtisodiy bilimlarga ixtisoslashgan tashkilotlar, statistik ma'lumotlar, ta'limga oid materiallar, grantlar haqidagi va boshqa ko'plab ma'lumotlarni ushbu internet resurslari katalogidan olish mumkin.

5. British Library of Political & Economic Science

<http://www.library.ise.ac.uk>

London iqtisodiyot maktabining rasmiy sayti. Saytda kutubxona katalogi va katta hajmda iqtisodiy fanlarga oid electron materiallar mavjud.



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kirish Введение Preface	3
Zamonaviy iqtisodiyot fani nimani o'rganadi Тема изучения современной экономической науки Subject matter of modern economy science	4
Iqtisodiy rivojlanishning umumiy muammolari Общие проблемы экономического развития General problems of economy development	10
Xo'jalik yuritishning bozor tizimi Рыночная система хозяйствования Market system of management	15
Talab va taklif tahlili asoslari Основы анализа спроса и предложения Basic analysis of demand and offer	25
Ishlab chiqarish xarajatlari Издержки производства Production expenses	30
Mukammal raqobat sharoitida ishlab chiqarish omillariga narxning shakllanisi Ценообразование производственным факторам в условиях совершенной конкуренции Price formation of production factor in condition of modern competition	32
Bozor tuzilmasi va nomukammal raqobat Рыночная структура и несовершенная конкуренция Market system and imperfective competition	38
Milliy ishlab chiqarish hajmi, milliy daromad va narxlar darajasini o'lchash Объем национального производства, измерение национального дохода и уровня цен Total volume of national production measure of national	52

income and price level	
Iqtisodiy o'sish Экономический рост Economy grouts	57
Xalqaro savdo va savdo siyosati Международная торговля и торговая политика International trade and trade policy	61
Iqtisodiy atamalar va tushunchalar Глоссарий Glossary	67
Foydalanilgan adabiyotlar va WEB manbalar Использованная литература и WEB ссылки Used literature and web references	81

A. A. Abduvohidov, O. R. Rayimberdieva

IQTISODIYOT ASOSLARI
(o'quv qo'llanma)

Guliston Davlat Universiteti - 2006

Muharrir i.f.n. dosent O. T. Sattorqulov
Texnik muharrir O'. A. Mamanov
Komp'yuterda sahifalovchi B. A. Abduvohidova

Bosishga ruxsat etildi . **Bichimi** . **Bosma tabog'i**
. Adadi . **Buyurtma** . **Bahosi shartnoma asosida.**

Guliston Davlat Universiteti, 707000, Guliston shahri 4-mavze. Shartnoma
.

GulDU bosmaxonasida chop etildi.